

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

TRANSPORT SOHASI BO‘YICHA STRATEGIK INFRATUZILMALAR IQTISODIYOT RIVOJI UCHUN MUHIM

Qadrlı do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni — ming-minglab zahmatkash yo‘lsoz, quruvchi va muhandislar, energetik va aloqachilar, mashinist va vagon kuzatuvchilarini, sohaning barcha ishchi-xizmatchilari va faxriylarini bugungi kasb bayramingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakkod etib, o‘zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan barpo etilayotgan yangi temir yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlari, stansiya va vokzallar, aholi va tashkilotlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar xalqimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish, mamlakatimiz tranzit salohiyatini oshirish, iqtisodiyotimiz tarmoqlari va ijtimoiy obyektlarning bir maromda ishlashini ta‘minlashda, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyatga ega.

Ushbu qutlug‘ ayyomda tunu kun samarali mehnat qilib, ana shunday mas‘uliyatli soha ravnaqiga munosib hissa qo‘shayotgan ko‘p millatli temir yo‘l jamoalariga, tizimdagi barcha

xizmatchi va xodimlarga o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli temiryo‘lchilar!

So‘nggi yillarda milliy taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish jarayonida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat berayotganimiz sizlarga yaxshi ma‘lum. Shu boradagi keng ko‘lamli islohotlar tufayli O‘zbekiston temir yo‘llari faoliyati tubdan takomillashtirilib, sohada muhim loyiha va dasturlar hayotga joriy etilayotganini mamnuniyat bilan ta‘kidlash lozim.

Qisqa muddatda 3 ming 800 kilometrdan ziyod temir yo‘l elektrlashtirilib, Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘li qurib bitkazilgani, lokomotiv parki zamonaviy texnikalar bilan to‘ldirib borilayotgani shu yo‘nalishdagi ishlarimiz ko‘lamidan dalolat beradi.

Eng muhimi, bunday sa‘y-harakatlarimiz uzviy va davomli bo‘lib, buning tasdig‘ini Toshkent — Urganch — Xiva yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan elektr poyezdlar

qatnovini yo‘lga qo‘yish, Miskin — Nukus temir yo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, bu yil aholiga sifati transport xizmati ko‘rsatish, turizmni rivojlantirish maqsadida Samarqand shahridan Urgutga, Toshkent viloyatidagi Baytqo‘rg‘on stansiyasidan Parkent tumaniga temir yo‘l tarmog‘ini tortib borish ishlari boshlandi. Shuningdek, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi bo‘yicha yirik xalqaro loyihaning amalga oshirilayotgani nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamiz kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qadrlı soha xodimlari!

Bugungi kunda temir yo‘l transportini yanada rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar turi va hajmini ko‘paytirish, ularning sifatini oshirish, muhim zamonaviy kommunikatsiya obyektlarini barpo etish bo‘yicha hali oldimizda ulkan vazifalar turganini, Yangi O‘zbekistonga hozirgi davr talablariga javob beradigan qudratli temir yo‘l sanoati, temir yo‘l

tarmoqlari va xizmatlari zarurligini, o‘ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Tariximizda ilgari ko‘rilmagan bunday ulug‘vor va mas‘uliyatli vazifalarni amalga oshirishda biz, avvalo, chuqur bilim va katta mehnat tajribasiga ega bo‘lgan, o‘z ishi va kasbini chin dildan sevadigan, butun umrini elga xizmat qilishdek olijanob ishga bag‘ishlab kelayotgan siz, jonkuyar va zahmatkash temiryo‘lchilarimizga tayanamiz.

Aminmanki, sizlar xalqimizning ana shunday yuksak ishonchidan kuch va ilhom olgan holda, yanada samarali mehnat qilib, soha taraqqiyotini albatta yangi bosqichga olib chiqasiz.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik va baxtu saodat, serqirra faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

TRANSPORT SOHASI BO‘YICHA STRATEGIK INFRATUZILMALAR IQTISODIYOT RIVOJI UCHUN MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyevga transport sohasidagi yirik loyihalar bo‘yicha axborot berildi.

Iqtisodiyot rivojlanib, hayot sur‘ati tezlashgani sari transport aloqalariga talab ham oshaveradi. Toshkent shahriga avia yo‘lovchilar oqimi 2030-yilda 15 millionga yetishi kutilmoqda. Lekin bunga hozirgi aeroportning quvvati yetmaydi. Shahar ichida joylashgani sababli uni kengaytirish imkoni ham yo‘q.

Shu bois, Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport qurish rejalashtirilgan. Bugungi kunda xususiy sheriklik bo‘yicha xorijiy kompaniyalar takliflari ko‘rib chiqilmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar ushbu yirik loyihaning barcha jihatlari bo‘yicha axborot berdi.

So‘nggi yillarda yo‘l xo‘jaligiga ham katta mablag‘ ajratilib, yangi inshootlar barpo etilmoqda. Avtotransportlar

harakatiga qulaylik yaratish maqsadida muqobil yo‘llar qurilishi ham loyihalashtirilmoqda. Bu borada investorlarga jozibador muhit yaratish uchun “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda ishlab chiqildi.

Shularga asoslanib, Toshkent bilan Samarqand o‘rtasida muqobil tezyurar magistral yo‘l qurish loyihasiiga bir necha hamkor davlatlar kompaniyalari qiziqish bildirgan.

Mutasaddilar ular bilan o‘tkazilgan muzokaralar natijalari va takliflari haqida hisobot berdi.

Davlatimiz rahbari ushbu strategik infratuzilmalarni puxta o‘ylab loyihalashtirish va tezroq amaliy bosqichga o‘tish zarurligini ta‘kidladi.

O‘ZA



SHONLI YO‘L SHARAFI

MUSTAQILLIGIMIZNI MUSTAHKAMLASH BARCHAMIZ UCHUN HAM QARZ, HAM FARZDIR

Mustaqillik shunday ulug‘ ne‘matki, u milliy o‘zligimiz, davlatchiligimiz, qadriyat va an‘analimiz, beqiyos tariximiz va ma‘naviyatimiz, haq-huquq va qadr-qimmatimizni qaytarib berdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo‘lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Xalqimiz O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga

asos bo‘luvchi ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Mustaqillik xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan davlat, inson qadri ustuvor bo‘lgan erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish imkonini berdi.

► Davomi 2-beta

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

ORTGA BIR QARASAM...

“Bu yil...”, “Bugun...”, “Hozir...” so‘zlarini alohida-alohida tilga olsam, vaqt ma‘nosidan tashqari biror hayratlanarli mohiyat kasb etmasa kerak. Ammo “Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi” deb aytсам-chi?.. Bir daqiqa avval oddiygina tuyulgan bu so‘zlar birdan ulkanlashib ketadi. Shu ulkanlikka qo‘shilib, ko‘z oldimdan ozodlikka erishgan, dunyo xaritasidan hur millat sifatida joy olgan, tanilgan, tan olingan yillar bilan bog‘liq voqea-hodisalar o‘ta boshlaydi. O‘zim ham butun borlig‘im, faxru g‘ururim bilan shu voqea-hodisalarga qo‘shilib, singishib ketganday bo‘laman.

Zomindaman. Tog‘ havosidan to‘yib-to‘yib nafas olish ilinjida yo‘l chetidagi piyodalar yo‘lakhasida odimlayman. Bu xushabiat maskanda yilning to‘rt faslida ham o‘zgacha go‘zallik bor. Shifobaxsh archazorlar, dorivor g‘iyohlar, xuddi bahordagi kabi yashnab turgan dov-



daraxtlar... Qaragan sari hayratim o‘zimdanda ham balandlab ketgandek tuyuladi. Uch yil avval kelganimda bu yo‘llar boshqacha edi. Toshloq so‘qmoqlarda yurib sayohat qilish ancha mushkulot tug‘dirardi.

Bu gal yo‘llarning ravonligi, atrofdagi sokinlikning o‘zi odamga bir maromda qadamlash, ilgirilash istagini baxsh etadi. Navoiy viloyatidanman deb o‘zini tanishtirgan hamrohim bilan gurgumiz

qizib qoldi. Bir zamon, bir makonda yashayotgan insonlarning aksariyatida ba‘zan shunday qalban yaqinlik bo‘ladi.

► Davomi 3-beta

BARQAROR QURILISH TAMOYILLARI

SIFAT VA SHAFFOFLIKNI TA‘MINLASHGA QARATILGAN

Keyingi yillarda qurilish sohasi iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Gap faqat son haqida bormayapti. Chunki hozir qurilishlar haqida gap ketsa, ko‘z oldimizga shaharlarimizdagi yangidan yangi bunyodkorliklar, o‘nlab, yuzlab ko‘p qavatli turar joylar keladi. Ya‘ni ko‘lam nihoyatda katta. Ammo, shu bilan birga, bugungi qurilish sohasi mustaqil zamonaviy tizimga aylanib, ham sifat, ham nazorat, ham raqamlashtirish va ekologik xavfsizlik jihatidan xalqaro me‘yorlarga tenglashib bormoqda.



Mazkur tarmoq ijtimoiy infratuzilma, uy-joy va sanoat obyektlarini rivojlantirish orqali barcha sohalarga multiplikativ ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir yangi loyiha mehnat resurslari, materiallar va jihozlariga talabni oshirib, yangi ish o‘rinlari va xizmatlar infratuzilmasini shakllantiradi.

Agar O‘zbekistonning qurilish sohasidagi oxirgi sakkiz yillikdagi islohotlarni tahlil qilsak, ko‘lam nihoyatda katta ekani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash va xalqaro standartlarga moslashish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

► Davomi 4-beta

YOSHLIK VA EZGU TASHABBUSLAR FASLI



Taraqqiyot mezonlari

SHONLI YO‘L SHARAFI

MUSTAQILLIGIMIZNI MUSTAHKAMLASH BARCHAMIZ UCHUN HAM QARZ, HAM FARZDIR



Qobil TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Budget va
iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi
o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan o‘ttiz to‘rt yil ozod vatanimiz uchun tom ma‘nodagi uyg‘onish, tiklanish va yuksalish davri bo‘ldi. Iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat, ma‘rifat, ma‘naviyat, demokratik jamiyat qurilishi va boshqa sohalarida mislsiz yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ayniqsa, oxirgi yillarda barcha sohada o‘zgarishlar shiddatli tus oldi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yib, barcha soha va tarmoqlarda tub islohotlar, demokratik yangilanish jarayonlari kechmoqda. O‘tgan davr erkin va farovon hayot, buyuk kelajakni faqat va faqat mustaqillik asosidagina qurish mumkinligini ko‘rsatdi.

Yuksak siyosiy iroda tufayli O‘zbekiston dunyoga, dunyo O‘zbekistonga ochildi. Ayniqsa, mintqa davlatlari bilan muzlatilgan munosabatlarga iliqlik kirdi. Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar hal etildi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalaridagi aloqalarimiz yangi bosqichga chiqdi.

O‘zbekistonning dunyoga ochilishi va shaffof, pragmatik siyosat mintqa tashqi siyosatidagi vektorlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Hozirgi kunda qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha amaldagi

siyosatimizni dunyo hamjamiyati ham e‘tirof etmoqda.

O‘tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. Keyingi yetti-sakkiz yil ichida mintaqaning yuragida joylashgan mamlakat — O‘zbekistonning o‘zgartirgan qo‘shnilar, qolaversa, dunyo hamjamiyati bilan ochiq siyosat yuritishga o‘tgan hisobiga yuz berayotganini barcha ko‘rib, his qilib turibdi.

Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘l‘risida”gi qarorida ham joylarda qutlug‘ ayyomni yuqori saviyada nishonlash uchun tashkil etiladigan turli tadbirlarda ushbu

Osiyo mintaqasida yaxshi qo‘shnichilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o‘rni va nufuzi ortib, yangi bosqichga ko‘tarilayotgani, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro‘-e‘tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani shular jumlasidan.

Bugun yurtimizda kechayotgan islohotlar, inson manfaatlarini ta‘minlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlar natijasida “Yangi O‘zbekiston orzusi” real haqiqatga aylanmoqda. Buni xalqaro maydonda vatanimizga hurmat va e‘tibor tobora ortib borayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zingiz aytib, qachon bizda bunday keng qamrovli islohotlar amalga oshirilgan yoki shunga harakat qilingan? Keyingi sakkiz yil ichida birorta oy yoki hafta topilamikan, unda xalq manfaat yo‘lida biror hujjat qabul qilinmagan yoki ayni maqsad yo‘lida biror yirik loyihaga qo‘l urilmagan bo‘lsa?! O‘zbekiston yetakchisi

jamiyatda o‘z ifodasini topib, yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning hayotiy manfaatlarini, orzu-umidlari ro‘yobga chiqaypti, chinakam yashash zavqini tuyumoqda. Shuning uchun bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Inson qayerda dunyoga kelsa, ana shu yer uning uchun aziz vatandir. Kindik qoni to‘kilgan joy inson uchun hech narsaga almashtirib bo‘lmaydigan, hamma narsadan qimmatli dargohdir! Mamlakatimiz mustaqilligi, huquqiy demokratik davlat qurilishi, yangi jamiyatga o‘tish davrida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, ma‘naviy-ruhii poklanish hamda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishi muhim tarixiy voqealardir.

Bu yilgi bayram tadbirlari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam ergan holda o‘tkazilmoqda. Ta‘bir joiz bo‘lsa, vatan uchun yashash yurtimiz taraqqiyoti uchun intilish, uning sha‘nini himoya qilish, uni dunyo tan oladigan zamonaviy, obod mamlakatga aylantirishdir. Millat uchun fido bo‘lish o‘z tilimizni, madaniyatimizni, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish, uni yoshlar qalbiga singdirishdir. Xalq uchun yashash esa fidokorlik, samimiyat va halol mehnat orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish demakdir.

Ayni dam yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilgan shonli yo‘l boshidamiz. Bu yo‘lda yurtimizda kechayotgan islohotlarda fidokorona qatnashib, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga munosib hissa qo‘shish barchamiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi kerak.

bu demokratik o‘zgarishlarni kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, aksincha, xalqimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o‘ylab, milliy manfaatlarimiz yo‘lida amalga oshirmoqda.

Yangi O‘zbekistondagi izchil islohotlar natijasida “Inson qadri uchun” tamoyili



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“Suyunchi puli”, “qo‘l haqi”, “qog‘oz puli”, “choy puli”... Ular qanday nomlanishidan qat‘i nazar, poradir. Shu bois, davlat qonunlarining poymol etilishi, jamiyatda adolatning oqsashi, jinoyatning bir ko‘rinishi bo‘lib qolaveradi.

Munosabat



MAISHIY KORRUPSIYA

KICHIK KO‘RINGANI BILAN JAMIYAT RIVOJIGA ZARARI KATTA

Korrupsiyaning miqdori emas, ko‘lami bu illatning urchiganini bildiradi. Ijtimoiy hayotimizda uchrab turadigan maishiy korrupsiya xalqning davlatga ishonchini susaytiradi, adolat tamoyillariga putur yetkazadi, tub islohot va yangilanishlarni ortga suradi.

Prezidentimiz shu yil 29-iyul kuni maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishayotganda bu masalaga alohida e‘tibor qaratdi. Taqdimotda Prezidentimizning joriy yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asosida hayotga tatbiq etilgan normalarning ijrosi bo‘yicha hisobot berildi.

Farmonda davlat xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish borasida takliflar ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan edi. Bu bo‘yicha mas‘ullarning yangi texnologiyalar va samarador mexanizmlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha takliflari eshitildi. Zero, jamiyatimizdagi korrupsion holatlarning katta qismi — 75 foizi shahar va tumanlarda maishiy shaklda kuzatilyapti.

orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizgacha yetkazish belgilangan. Maishiy korrupsion holatlar ko‘p kuzatiladigan eng quyi mahalla tizimi 100 foiz raqamlashtirilib, har bir mahallada “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish maqsad qilingan. Bu kabi chora-tadbirlar ijtimoiy hayotda korrupsiya holatlarining keskin kamayishiga xizmat qiladi. Natijada “Transparency International” xalqaro shakiloti indeksida kamida 50 pog‘ona ko‘tarilish ko‘zda tutilmoqda.

Taqdimotda davlatimiz rahbari sohada yo‘l qo‘yilayotgan juz‘iy kamchilik va muammolarni yana bir bor qayd etdi. Jumladan, ko‘p hollarda bu illatning sabablari chetda qolib, oqibat bilan kurashilayotgani, korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydigan preventiv choralar hali yetarli emasligi, har kuni odamlarning ishi tushadigan hokimlik, kadastr, bank va soliq idoralariida byurokratiya, “korrupsiyaviy tuynuklar” to‘liq yo‘qolmagani tanqid qilindi.

Shuningdek, korrupsiyaning faqat kamaygani emas, qanchasining oldi olinganiga qarab davlat idoralari faoliyatini baholash zarurligi qayd etildi. Birgina yer ajratish bo‘yicha shaffof tizim joriy qilingani, lekin joylarda bu borada noqonuniy xatti-harakatlar haligacha



Maishiy korrupsiya navbatni tezlashtirish, ruxsatnoma, ma‘lumotnoma, bola puli, ijtimoiy yordam olish yoki shunga o‘xshash boshqa kundalik holatlarda ko‘zga tashlanadi. Unga qarshi kurashning eng ta‘sirchan, samarali usuli sohalarni raqamlashtirish orqali imkon qadar davlat xizmatlarida inson omilini kamaytirishdir. Keyingi yillarda shu maqsadda davlat xizmatlari markazlari tashkil etilishi, “my.gov.uz” yagona davlat xizmatlari portali ishga tushirilishi, turli mobil ilova hamda elektron platformalar yaratilishi maishiy korrupsiya turlari kamayishiga zamin hozirladi. Oxirgi sakkiz yilda elektron davlat xizmatlari soni 15 barobar ortib, 721 taga yetdi. Ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshgani ham bu yo‘nalishdagi ishlar samarasini yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, maishiy korrupsiya eng kuchli bo‘lgan tarmoqlar: maktab va maktabgacha ta‘lim, oliy ta‘lim, sog‘liqni saqlash tizimlarida raqamlashtirish jarayoni faol davom ettirilmoqda. Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turi to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Oliy ta‘lim tizimida 35 turdagi hujjatni inson omilisiz olish imkoni yaratildi.

Nafaqat yuqoridagi sohalar, balki xavfsizlik, bank-moliya, soliq tizimlarida ham raqamlashtirish ishlari jadal bajarilmoqda. Ularning amaliy natijasi sifatida O‘zbekiston “Transparency International” xalqaro korrupsiya va adolatsizlikka qarshi kurashish harakatining “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”da 2018-yildagi 158-o‘rindan 2024-yilda 37 pog‘ona ko‘tarilib, 121-o‘rindan joy oldi. Aniq belgilab olingan reja va strategiyalarga tayanagan ortga qaytmas islohotlar bilan shu natijaga erishildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha, birgina Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

uchrab turgani aytiladi. Kadastr agentligi, “O‘zbekkosmos”, qurilish va boshqa tegishli tashkilotlar ma‘lumotlarini tahlil qilib, bunday holatlarga butunlay chek qo‘yish shartligi ta‘kidlandi.

Maishiy korrupsiyaga barham berishda kuchli parlamentar hamda ta‘sirchan jamoatchilik nazorati ham muhim. Jumladan, mazkur farmonga binoan, korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashda parlament rolini kuchaytirish bo‘yicha muhim normalar belgilangan edi. Unga ko‘ra, Oliy Majlis palatalariga har yili byudjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan uchta vazirlik va idorada korrupsiyaviy omillarni aniqlab, bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish hamda xalqaro tajribani o‘rganib, kibermakonda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza yaratish, ishchi guruhi tuzib, “jinoyatchilikka qarshi kurashish talati”da har oyning 1-5 sanalarida “qizil” toifadagi mahallalarda jinoyatlarining kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish vazifalari yuklatilgan edi.

Taqdimotda parlamentning mas‘ul qo‘mitalari mahallagacha tushib, korrupsiya holatlarining kelib chiqish sabablarini o‘rganishi hamda yoshlar o‘rtasida korrupsiyaga murosasizlik muhitini shakllantirishi borasidagi ta‘sirchan chora-tadbirlar xususida fikr yuritildi.

Korrupsiya ildizi uzoq yillarga borib taqaladi. Unga qarshi xalq va davlat birga, bir yoqadan bosh chiqarib kurashmasa, jamiyatda bu illatga nisbatan toqatsizlik muhiti shakllanirilmasa, yengish mushkul. Ayniqsa, uning oqibatlari emas, balki sabablari bilan kurashish, oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etmay, ko‘zlangan masxadga erishib bo‘lmaydi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YOSHLIK VA EZGU TASHABBUSLAR FASLI

FARG‘ONADAGI OROMGOHLARDA ZERIKISHGA FURSAT YO‘Q

Bu yilgi yoz farg‘onalik bolalar uchun qiziqarli va quvunchli damlarga boy o‘tmqda. Sababi viloyatda yozgi dam olish vaqtini maroqli tashkil etish, mavsumni esda qoladigan yangiliklarga boy o‘tkazishga jiddiy e‘tibor qaratilyapti. Bu bejiz emas, albatta.



Kamolot pillapoyasida

Keyingi yillarda ta‘lim sifatini oshirish, yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazishga e‘tibor kuchaydi. Bu sa‘y-harakatlar yozgi ta‘lilda ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, Rishton tumanidagi “Qo‘rg‘oncha” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Rishton” oromgohida bolalarning mazmunli dam olishiga alohida hozirlik ko‘rildi. Oromgoh hududida suv taqchilligi bartaraf etilib, toza ichimlik suv tarmoqlari tortildi.

Turfa daraxtlar qo‘ynida joylashgan so‘lim oromgoh men uchun begona emas. Bu yerda o‘tgan asrning saksoninchi yillarida yozgi ta‘lilda dam olganim hamon yodimda. Ammo u paytdagi sharoit bilan bugungi qulaylik, imkoniyatlar o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Tuproq, yantoq bosgan maydonda yirtiq koptokdan boshqa narsa yo‘q edi. Cho‘milish havzalari haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Bugun bu yerdagi sharoit tom ma‘noda o‘zgartirganini ko‘rib havasim keldi. Oromgoh hududidagi 4,5 gektar yerda ming tupdan ortiq manzarali, 300 tupdan ziyod mevali daraxt iqlimning mo‘tadilligini ta‘minlaydi.

— Yozgi ta‘tilning besh mavsumida 600 bola dam olishi uchun kerakli sharoit yaratilgan, — deydi oromgoh direktori Akmaljon To‘raqulov. — Bolalar uchun

ikkita sun‘iy suv havzasi o‘rnatildi. Uch ming kitob fondiga ega kutubxona ochildi. Bolalarni sog‘lomlashtirish, har bir kunini mazmunli va qiziqarli o‘tkazish uchun barcha sharoit bor. Bu yoshlarga o‘z vaqtida o‘ynab, dam olish, qiziqarli mashg‘ulotlarda qatnashish imkonini bermoqda.

Oromgohda bolajonlar uchun tashkil etilgan mashg‘ulotlarni kuzatib, zerikishga vaqt yo‘qligiga guvoh bo‘ldik. O‘n ikki kun — o‘n ikki xil mavzu. Ularning har biri mazmun jihatidan bir-biridan qolishmaydi. Jumladan, Bolalar festivali kunida yangi O‘zbekiston g‘oyasini o‘zida mujassam etgan rasmlar, she‘rlar, qo‘shiqlar tanloviga e‘tibor qaratiladi. Harbiy-vatanparvarlik kunida harbiylashtirilgan estafeta va ommaviy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi. Milliy qadriyatlar kuniga mos ravishda sport o‘yinlari, liboslar namoyishi va ularning xalqimiz tarixidagi o‘rni haqida bolalarga ma‘lumot berilyapti. Shu bilan birga, “Zakovat”, “Ijod va iste‘dod”, “Ona tabiatini asrash”, “Yosh arxitektor”, “Millatlar do‘stligi”, “Turizm va o‘lkashunoslik” mavzularidagi qiziqarli mashg‘ulotlar o‘quvchilar tafakkurini ezgu g‘oyalara bilan boyitish, ularga turli yo‘nalishda o‘z salohiyatini namoyish qilish imkonini bermoqda.

— Oilamiz bilan Toshkentda yashaymiz, ammo farzandlarim yozgi ta‘lilda shu yerda dam olishni istaydi, — deydi Zuhroxon Rajapova. — Yaratilgan shart-sharoitlar, murabbiylar mehnati, mazali oziq-ovqatlardan ko‘nglimiz to‘q. Bolalar bir-biri bilan ahil-inoq. Bu yerda bog‘langan do‘stlik, birodarlik rishtalari yillar davomida mustahkamlanib boryapti.

Elnur bek Abdurashidov Rishton tumanidagi 4-maktabning 7-sinfida o‘qiydi. U oromgohdagi qulayliklardan xursandligini yashirmadi.

— Tabiiy chim bilan qoplangan stadionda maza qilib futbol o‘ynayapmiz. Futbolchi akalarimizning jahon chempionatiga yo‘llanma olgani to‘p tepishga ishtiyoqimizni oshirdi. Bundan tashqari, turli ko‘ngilochar mashg‘ulotlar, sayohatlarda bo‘lyapmiz. Do‘stlarim bilan kelgusi yozda ham shu yerga kelishni maqsad qildik, — deydi u.

Tog‘ qo‘ynidagi maskan

Olis So‘x tumanida tashkil etilgan bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi yuzlab ko‘ngillarga quvunch, shodlik ulashmoqda. Holbuki, shu paytga qadar tumanda bunday zamonaviy dam olish maskani bo‘lmagan. Aksariyat o‘quvchilar yozgi ta‘tilni uydan ko‘chaga chiqmay, behuda o‘tkazgani bor gap. Bugun tog‘ bag‘rida ulg‘ayayotgan bolalar turfa imkoniyatlardan bahramand bo‘lmoqda. O‘g‘il-qizlarning miriqib dam olishi, jismonan chinigib, salomatligini mustahkamlashi, bilim va ko‘nikmalarini oshirishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Yangi mavsum esa yanada qiziqarli bo‘lmoqda.

— Bizga taqdim etilgan 12 kunlik dastur asosida har mavsumda 180 nafardan jami 720 bolani sog‘lomlashtiramiz, — deydi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi direktori Tavakkaljon Erkeyev. — Bu yildan boshlab oromgohga yo‘llanmani elektron platforma orqali mamlakatimizning istalgan viloyatida sotib olish imkoniyati yaratildi. Natijada So‘xida nafaqat Farg‘ona, balki Andijon, Toshkent, Samarqand va boshqa viloyatlardan kelgan bolalar ham dam olyapti.

Kunlik dasturga ko‘ra, turli o‘yinlar, mutolaa soati, ijodiy mashqlar, musiqa va raqs mashg‘ulotlari, sport musobaqalari o‘tkazilmoqda. “Tabiatni asraylik” shiori ostida tabiat bag‘riga sayohat uyushtirilyapti. “Zakovat” intellektual o‘yini hamda “Quvnoq startlar” bellashuvlari tashkil etish an‘anaga aylangan.

— Menga bu yerning manzarasi, jo‘shqin daryosi, ob-havosi juda yoqdi, — deydi samarqandlik Allayor Sherbekov. — Ukam Sherxon bilan keldik. Oromgohni internetdagi



Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

ORTGA BIR QARASAM...



Munavvara USMONOVA,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Boshlanishi 1-betda

— O‘qituvchiman, aniq fanlardan dars beraman. Umr yo‘ldoshim Zarmitan konida ishlaydi. Yer osti zahmati odamni bosiq va vazmin qilib qo‘yadi chog‘i. “Shaxtada vaqt tushunchasi boshqacharoq”, deydi u. Ikki o‘g‘lim ham ota-bobolari yo‘lini tanlagan. Qiyin, ammo sharaflı bu kasb avlodga meros bo‘lib o‘tdi. To‘ng‘ich o‘g‘limiz Asrorbek ham konchi. U ba‘zan-ba‘zan “ochiladi”, ishi to‘g‘risida gaplashgisi kelib qoladi: “Konda tong otmaydi, ona. Kecha va kunduzning farqi yo‘q. Bizni maqsadimiz boshqaradi. Balandparvoz gap demang-u, vatan bizdan mana buncha boylik kutaypti, degan maqsad shamchiroq kabi yo‘limizni yoritib boraveradi”, deydi. Har yili salomatligimizni tiklash uchun bahavo maskanlardagi sihatgohlarda imtiyozli dam olamiz. O‘tgan yili ham bir shoira opa bilan hamsuhbat bo‘lgandik. Olimu fuzalolar bilan suhbat qilish odamga ruhiy ozuqa berar ekan-da. Ammo nega sizday ijodkorlarga bizday konchilar orasidan dam olish uchun joy qilib berishgan, bu birlikda qanday hikmat bor ekan deb o‘ylanib qolaman, — deydi muallima ayol qizib borayotgan suhbatimiz orasida.

— Biz ham nina bilan quduq qaziydiganlardanmiz-da, — deyman g‘ururlanib. Alloma shoirimiz so‘zga “tirik xazina” deb ta‘rif bergan. So‘z — zabarjad, so‘z — gavhar, oltin, zargarlikning esa mashaqqati ko‘p deganlar. Demak, bizning mehnatimizda ham konchilarnikiga o‘xshashlik bor ekan-da. Ular yer ostidan qimmatbaho ma‘dan qazib yurt xazinasini boyitsa, biz, so‘z zargarlari ma‘naviy xazinani to‘ldirishga bel bog‘laganmiz. Adabiyotimizning tarbiyachilik kuch-qudratini his etgan, bu kuchga ishonch bildirgan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan shunday jannatmonand maskanlarda biz ham hordiq chiqaryapmiz, shukr! Ammo bizni, qolaversa, har bir fuqaroni hayotdan rozi qilish maqsadida yaratilayotgan bu sharoitlar, ba‘zan odam bolasining aqlini shoshirib yuboradigan chiroyli o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q.

Yo‘l tugab, xayrlashganimizda ham fikriy harakat xayolimda davom etaverdi.

“Men ham nimadir qilib ulgurishim kerak”

Islohotlar... Osongina aytiladigan bu so‘z zamirida nechog‘liq salmoqli mablag‘, tashabbuskorlik, fidoyilik bor. Aytganimday, bu zamanga uch yil avval kelgandik. O‘shanda Zominga kelgan sayo-hatchi Supa tekisligi, Sherbuloq hamda sharsharani ko‘rib qaytardi, xolos. O‘tgan fursat oralig‘ida qilingan bunyodkorliklar uch yil emas, uch yuz yillarning mehnati samarasiga o‘xshaydi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Xorijnikidan qolishmaydigan mehmoxonalar, Shveysariya kompaniya-si texnologiyasi asosida barpo etilgan 36 ta kabinali osma dor yo‘li, 360 o‘rinli avtoturargoh, sog‘lomlashtirish markazi, yoshlar uchun Baxt uyi... Qolaversa, uzunligi 305, bo‘yagi 150 metr bo‘lgan, Markaziy Osiyodagi yagona ko‘pri-k ham odamlar xizmatida. Shunday qulayliklar ichida inson o‘zini bu ezguliklarga munosib

biladi. Ardoqlangan, e‘zozlangan his qiladi. Yashagisi keladi. Bu o‘zgarishlar Jizzax viloyatining birgina tumaniga tegishli ekanini, yurtimizda esa yuzdan ziyod bunday tuman borligini o‘ylasam, g‘ururim bir necha baravar yuksaladi.

Sahroda yashayotgan odamga butun olam cho‘lu dashtdan iboratday tuyuladi. Orzulari, intilishlari ham shu ko‘nikmaga yarasha bo‘ladi. Ammo har kun, har hafta o‘zgarayotgan, yaxshilanayotgan sharoitda istiqomat qilayotgan insonning tabiati ham shunga moyil bo‘ladi. Mudramaydi, uyg‘oq turadi. Xayolida doim “tobora chiroy ochayotgan hayot uchun men ham nimadir qilib ulgurishim kerak” degan bir istak yashaydi. Biz bunday haqiqatni bugun faqat bunyodkorliklar yo‘nalishida emas, balki jamiyatimizning jon tomiri bo‘lgan barcha jabhalarda kuzatamiz. Misol uchun, jamiyat barometri bo‘lgan xotin-qizlar tuzilmalaridagi o‘zgarishlarga bir nigoh tashlaylik.

Odil siyosat bag‘rida

Mamlakatimiz rahbarining bu boradagi siyosati, avvalo, tabiatning bu zarif yaratig‘ini ayol, ona maqomida ulug‘lashga qaratilgan. Ular hamisha davlat e‘tiborida, himoyasida, barcha huquq va erkinliklari qonunlar bilan mustahkamlangan. Avvallari tushuncha ham, imkoniyat ham boshqacha edi. Bugun opa-singillarimiz davlat boshqaruvida, siyosatda, qurilish va sanoatda, tadbirkorlikda, qo‘yingki, barcha soha va yo‘nalishlarda erkaklar qatorida faoliyat yuritmoqda.

Yangi O‘zbekistonning xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash borasidagi dadil odimlari xalqaro darajada ham e‘tirof etilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 45 foizga, siyosiy partiya-lar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a‘zolarining 27 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengisi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari deputatlarining 32,6 foizi ayollardan iborat. Yurtimizda xotin-qizlarning ta‘lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani bois, oliy ta‘limda o‘qiyotgan talabalar sonida xotin-qizlar ulushi ko‘proq. Foizsiz ta‘lim kreditlari, ehtiyojmand qizlarga grantlar ajratilishi, xotin-qizlarning magistraturadagi ta‘limi uchun mablag‘ davlat tomonidan qoplab berilishi kabi imtiyozlar tufayli ularning oliy ta‘limdagi qamrovi qariyb 53 foizga, magistraturada esa 62,7 foizga yetdi. Mutaxasssli-gi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega, shuningdek, ehtiyojmand oilalardan bo‘lgan xotin-qizlar uchun alohida qabul kvotalari doirasida oliy ta‘lim olish imkoniyatlari yaratilgan.

Dunyoning qay bir burchaklarida ayol, onaning ko‘z qarog‘ida avaylab ulg‘aytirgan o‘g‘lonlarini bag‘ridan yulib, ajal urug‘lari sochilayotgan urushlarga yuborilayotgan pallada bizning onalarimizning “mo‘tabar ayol” deya e‘zozlanishi, qo‘llarida guldasta, ko‘ksida g‘urur bilan el ro‘parasiga chiqishi boshqacha baxt ekanini bu ikki surat, ikki qismatni qiyoslab ko‘rganingda teran his etasan.

Lobar qizlarimiz ham shu odil siyosat bag‘rida qabul qilinayotgan farmon va qonunlarni qizlarimizni kamolot osmonlariga ko‘taruvchi qanot sifatida baholasak, zarracha mubolag‘a bo‘lmaydi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ham ana shu qanotga kuch beruvchi omillardan biri.

Ushbu mukofot beriladigan yosh olimlar, sport, san‘at va madaniyat vakillari sifatiga joriy yil yana bir soha vakillari — axborot texnologiyalari sohasidagi qizlarimiz ham



qo‘shildi. Bu — qizlarimizning tafakkur imkonlariga bo‘lgan ishonch. Bu o‘zbek qizlarining qo‘lidan faqat kashta tikish, ovqat pishirish, uy tozalashdan tashqari yana ko‘p ishlar keladi, deganidir. Ular dunyodagi texnik cho‘qqilarni zabt etayotgan boshqa millat qizlaridan kam emas deganidir. Xizmatimiz taqozosiga ko‘ra, bir necha nufuzli tanlovlar g‘olibi Nodira Tillayeva bilan kechgan suhbatimizda bu haqiqatga yana bir bor ishon-dik. Nodira Toshkentdagi INHA universitetida IT yo‘nalishda tahsil olgan.

— Bolaligimdan aniq fanlarga qiziqqanman. Litseyda o‘qib yurgan chog‘imda O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilgan “Technovation girls” xalqaro tanlovidagi ishtirokim kelgusida aynan shu yo‘nalishni tanlashimga asos bo‘lgan. IT bo‘yicha ilk bilim va tajribalarim shu tanlov doirasida yaratilgan “SOS–knopka” ilovasida o‘z aksini topdi. Bu ilova xotin-qizlarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, hakamlar tomonidan yuqori baholangan.

Zamonamiz
istiqlol bag‘rida qadim
qudratini tiklashga
astoydil chog‘langan o‘zbek atalmish
qadim millat yo‘llari bizning
yo‘llarimizga tiriklikning, baxtu
iqbolning so‘lmas gullarini sochgandek.
Uni ixlos bilan, sevib, sadoqat qo‘llari
bilan termiq va go‘zalligiga g‘ubor
qo‘ndirmay, ona diyor
ko‘ksiga taqmoq
kerak.

Izlanuvchan qizning yutuqlarida uning shaxsiy tirishqoqligi muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, bu g‘alabalarni, g‘olibliklarni mustaqil vatanimiz bugungi yoshlarining havaslarga loyiq yaxlit qiyofasi sifatida tasavvur qilsak, to‘g‘ri bo‘ladi. Axir ular bitta yo‘l ikkita emas-ku.

“Saodat” jurnalida chop etilgan, ko‘p-lab e‘tiroliflarga sazovor bo‘lgan “Ziyoda” sarlavhali maqolaning qahramoni ham ana shu qizlarning safdoshi. Sirdaryolik jurnalist Xolida Pardaboyevaning maqolasidan ixchamgina bir parcha keltirsam, bu fikrga siz ham qo‘shilasiz.

“Yurtimizda ilm-fan, texnologiya, madaniyat, san‘at, sport, tadbirkorlik va boshqa sohalarda tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan bir guruh o‘g‘il-qizlar yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi. Ular orasida Guliston tumanidagi “Ozodbek tuhfası” fermer xo‘jaligining 23 yoshli mexanizatori Ziyoda Jo‘raboyeva ham bor. Hozirgi kunda aksariyat yoshlar yangi markadagi qimmatbaho yengil avtomobil egasi bo‘lishni orzu qiladi. Ziyoda esa ulardan farqli o‘laroq, otasi Olimjon Mirzayevga tegishli bo‘lgan traktorni boshqarishni niyat qilgan.

Otasi ham farzandining beg‘ubor orzularini yuragidan his etib, unga o‘z kasbi sirlarini o‘rgata boshladi. U texnikaga bolaligidan qiziqqani bois, 17 yoshidanoq traktorni mustaqil boshqarishni o‘rgandi. Afsuski, otasining umri qisqa ekan, yurak xuruji oqibatida vafot etdi. Endi yaqinlari

fermer xo‘jaligini boshqarish oson ish emasligini aytib, faoliyatni to‘xtatish kerakligi haqida maslahat berdi. Ammo onasi Nilufar opa umr yo‘ldoshining ishini davom ettirishga qaror qildi va fermerlikni o‘z zimmasiga oldi. Ziyodaning chekiga esa o‘zi hadisini olgan ish — traktorni boshqarish tushdi. Boshida qiyinchilik bo‘ldi. Ilk bor traktor rulini boshqargan kuni ishni g‘o‘zani kultivatsiya qilishdan boshladi. Qilayotgan ishi unga chinakam zavq berib, kuchiga kuch qo‘shdi.

— Hozir fermer xo‘jaligiga onam rahbarlik qiladi, ammo men agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtda bajarib, ularning zimmasidagi katta yukni yengillatishga harakat qilyapman. Har yili g‘alla va paxtadan mo‘l hosil yetishtirib, belgilangan rejalarni o‘ziga‘i bilan bajarib kelyapmiz, — deydi Ziyoda”.

Dilbandlarimiz ko‘ksimizga baxsh etayotgan faxr bilan g‘ururlanar ekanman, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri ustoz Abdulla Oripovning bunday satrlari esga keladi:

*Faqat o‘tmish bilan yashamas inson,
Garchand bo‘l olmaydi undan hech ozod...*

Ko‘zimiz yetsa-da, qadamimiz yetmasdi

Esimda sentyabr oyida uch-to‘rt kungina o‘qirdik. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham paxta yig‘im-terimiga safarbar qilinardi. Bu xabarni yetkazgan rahbarlardan biriga o‘qituvchimiz: “Bu go‘daklarga jabr bo‘libdi, besh-oltita durkuni bor, xolos, qolgani g‘ovlagan g‘o‘za qator ichida yo‘qolib qoladi-ku! Bulaming bir tutam beli paxta to‘la etakni ko‘tara oladimi?” degandi. Menga o‘shanda ustozimiz yig‘layotgandek, ovozi-da tirqoq bordek tuyulgan edi.

Uyda dadamning eski qiyig‘ini etak qilib bog‘layotgan onam: “Senginaning tergan paxtang bilan plan bajarilsa, bajarilmay kuyib ket-sin-e, qanday zamonda tug‘ilib qoldinglar, bolam-a”, deya yozg‘irgani esimda. Akalarim etak-etak ko‘sak terib kelardi. Yarim tungacha tancha atrofida ko‘sak chuvib, ustunga suya-nib mudragan paytlarda bu zahmatli hayot umrbod davom etadiganday tuyulardi. Yerga urug‘ qadalgandan qor tushgunga qadar daladan beri kelmagan o‘smir falakni ko‘zlarimdi? O‘ylab, orzulab oliyog‘h eshigiga yetganida ham ko‘pimiz o‘qishdan yiqilardi. Men ataylab “yiqilmoq” so‘zini qo‘shimoqsiz yozdim. Chunki bu chin ma‘nodagi yiqilish, yiqilish bo‘lganda ham yuztuban tushib parchalanib ketishdek gap edi. Bu bir yil umr bekor ketadi degani edi. O‘rta maktabni bitirgan bolaga hech qayerda ish yo‘q, ota-onasi kimdagiir shogirdlikka bersa, xo‘p-xo‘p. Agar buni ham udda qilolmasalar, yillar suvga oqardi. Balog‘atga yetib harbiyga chaqirilgan o‘g‘lonlarimiz sobiq ittifoqning turli tomonlariga xizmatga ketardi. Ana undan keyin ur-kaltakda qolgani qaysi, majruh bo‘lib qaytgani qaysi, tobtuda kelgani qaysi... Qizlarni esa og‘zidan ona suti ketmay uzatib yuborishardi. Boshqa nimayam qilardi... Maktabning to‘qqiz oyidan uch oyinigina partada, qolganini dalada o‘tkazgan bo‘lsa...

Oliyog‘hlar eshigi yo katta pul, yo mansabi kattaroq amaldorlar qo‘ng‘irog‘i bilan ochilar edi. Bu jarayon yaqin yillargacha davom etganini hech kim inkor etolmaydi. Keyingi besh-olti yil ichida bu boradagi nohaqliklarga barham berildi. Endi hech kim hech kimga “tanka” bo‘l olmaydi. Bilimi bor, albatta, o‘qiydi. Bir oliyog‘hga kirish uchun

belgilangan balni to‘play olmasa, boshqasiga kirish imkoni bor.

Ayni kunlarda oliy ta‘lim muassasalariga kirishda bir emas, o‘n emas, 43 turdagi imtiyoz mavjud. Bugunning nafasi boshqacha, imtiyozlari, insoniyligi boshqacha. Ammo yana o‘sha ustoz shoir aytib ketgan gap... Ortga bir qarasam... “yashab yurgan ekanmiz-da”, degan og‘riq bo‘g‘zimga qadaladi.

Menga ota vatan bo‘lgan Marhamat tumani qo‘shni Qirg‘iziston bilan chegaradosh. Bordi-keldi, quda-andachilik azaldan bo‘lgan. Biz ham akamga kelin tushirganmiz. Shunday kunlar bo‘ldiki, otasi olamdan o‘tdi deb xabar kelganda ham kelinimiz borolmadi. Yo‘llar berk edi. Chegaraga borib bo‘ylasa, ota uyining tomi ko‘rinib turgan joyga ko‘zi yetsa-da, qadami yetmasdi, yetolmasdi. Endi bu mushkulotlar ham yechimini topdi.



G‘ayratli-shijoatli yoshlar kabi keksalarning yelkasiga ham oftob tegdi. Ayniqsa, pensionerlarning hujjatlarini rasmiylashtirish, nafaqa olish tashvishlari ancha yengillashdi. Keksalik nafaqasiga chiqish uchun bir yil urinib ham hujjatlarini rasmiylashtirolmagan bir yozuvchini tanirdim. U nadomat bilan: “Menga bunday nafaqaning keragi yo‘q, ellik yil el orasida xizmat qilib, qalam tebratib bunchalik xorlanmagan, qiynalmagan edim. Tug‘ilgan uprog‘imdagilar o‘n yillab qilgan mehnatimni yo‘qqa chiqargandan keyin qolganlardan nimani umid qilaman?” deya iztirob chekkandi. Xuddi shunday oddiy odamlarning dardiga darmon topish ilinjida bosh urgan eshiklari deyarli doim berk bo‘lardı. Nimalardanidir zorlanib yozgan arzlari havoda qolgan, havodorlar oddiy odamlar bilan muloqot qilmaydigan zamonlarni ham ko‘rdik. Marhamatda xotin-qizlar yo‘nalishida faoliyat yuritgan paytlarimda qozonida yovg‘on ham qaynamagan xonadonlarning qanchasini ko‘rganman. Shu ma‘noda, bugunimizning har soniyasini tole bilib, manglayimizga surtsak arziydi.

Barchamizning baxtimizga yangi va samarali tizim yaratildi. Endi xalqni eshitadigan Prezidenti bor, endi xalqning ishongan suyanchi va tayanchi bor!

Zaminimiz va zamonamizni yashnatmoq o‘zimizning qo‘limizda

Oilamizda uch akam shifokor. Tuman markaziga borib, Toshpo‘latovlarni taniysizmi deb so‘ralsa, “Do‘xtirlarmi, yuring, uyini ko‘rsataman”, deb yo‘l boshlashadi. Oila davrasidagi suhbatlarimiz ham ko‘pincha tibbiyotga borib taqaladi. Sulola davomchilari

ham bor. Onamning talabi bilan har bir oiladan bittadan farzand tibbiyot yo‘nalishida ta‘lim olmoqda. Modomiki gap mustaqillik davri muvaffaqiyatlari haqida borar ekan, biz uchun qaddron bo‘lgan soha rivojiga ham bir nazar solgim keldi.

2016-yilda tibbiyotga byudjetdan ajratilgan yillik mablag‘ hajmi besh trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bugunga kelib bu raqam qirg‘iz ikki trillion so‘mga yetdi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish dasturi hayotga tatbiq etilmoqda. O‘tgan sakkiz yilda tibbiyotimizda qator megaloyihalar amalga oshirildi. Bolalar milliy tibbiyot markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya, Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya



BARQAROR QURILISH TAMOYILLARI

SIFAT VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN



Iskandar O'ROQBOYEV,
Barqaror rivojlanish
markazi eksperti

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, “Building Information Modeling” (BIM) texnologiyalari, dronlar orqali monitoring va raqamli nazorat platformalari ishga tushirildi. Ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida energiya samaradorligi talablari kuchaytirilib, qayta ishlangan materiallardan foydalanish majburiy qilindi va “yashil” sertifikat tizimi joriy etildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan uyg‘unligi mamlakatning global maydondagi pozitsiyasini mustahkamlab, qurilish sohasidagi islohotlarni jadallashtirdi. Strategiya doirasida urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish, hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini 100 tagacha ko‘paytirish, eski binolarni renovatsiya qilish, qurilishda yangi standartlar joriy etish va ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish uchun qonuniy bazani shakllantirish ishlari amalga oshirilmog‘da. Xususan, “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi joriy etilishi sohadagi talon-tarojlik va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qilyapti. Tizim muntazam takomillashtirilib, qurilishda shaffoqlik va sifati ta’minlashga hissa qo‘shmog‘da.

Iqtisodiyotdagi ulushi qanday?

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda iqtisodiyotda band bo‘lgan 14,3 million aholining 9,5 foizi (1,4 million kishi) qurilish sohasida faoliyat yuritgan. Mamlakat YIM hajmi 115 milliard dollarni, bunda qurilish tarmoqi‘ning ulushi 7 foizni tashkil etdi.

Soha infratuzilmani rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shmog‘da. Raqamlarga e’tibor qarataylik. O‘tgan yili 40 million kvadrat metr bino-inshoot qurildi, jumladan, 100 ming xonadonli 2044 ta ko‘p qavatli uy barpo etilib, 350 ming kishi ish bilan

ta’minlandi. Yondosh tarmoqlarda 11 trillion so‘mlik bozor hosil bo‘lib, iqtisodiyotda 73 trillion so‘m mablag‘ aylandi va byudjetga 14 trillion so‘m tushdi. Sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2024-yilda 59 ming shaxsga 17 trillion so‘m ipoteka krediti va qurilish kompaniyalariga 3 trillion so‘m aylanma mablag‘ ajratildi. Bu ipoteka va aylanma mablag‘lar orqali qurilishni moliyaviy rag‘batlantirish samaradorligini ko‘rsatadi.

Yurtimizda aholi soni va daromadi ko‘payishi ortidan turar joyga ehtiyoj oshib borayotir. Qurilish ko‘lami ham shunga mos tarzda o‘smog‘da. Masalan, 2020-yilda 12,9 million kvadrat metr turar joy foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, 2024-yilda 14,8 million kvadrat metrga yetdi (o‘shish 15,3 foiz).

Shaharsozlikda yangicha yondashuvlar joriy etilayotgani esa odamlarning uy-joy xarid qilishda qulayliklar va shaffoqlikni ta’minlayapti. Hozir istalgan hududdan vositachilarsiz, istalgan to‘lov shaklida xonadon xarid qilish mumkin. 2025-yil iyulidan esa qurilish sohasida yangi mexanizm — eskrou tizimi joriy etildi. Bu aholi mablag‘ini himoya qilish, qurilishning shaffoqligi va sifati ta’minlash hamda jarayonni raqamli nazorat qilishga qaratilgan amaliyotdir. Zamonaviy tizim developerlarga 1 milliard dollar aylanma mablag‘ jalb qilish imkonini beradi, ipoteka va subsidiyalarni ajratish qurilish bilan birga boshlanadi.

Yana bir jihat, Toshkent shahri bosh rejasi tasdiqlanib, qurilishga ruxsat va arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i yagona tizimga birlashtirildi, vaqt ikki baravar qisqartirilmog‘da. Bu tizim boshqa viloyatlarda ham joriy etiladi.

Sohada “yashil” standartlar, energiya samarador texnologiyalar joriy qilinib, “aqlii” shahar va “aqlii” uy tamoyillari amaliyotga tatbiq etilmog‘da. Davlat obyektlariga videokuzatuv o‘rnatilishi, ma’lumotlarni onlayn uzatish, noqonuniy qurilishlarga jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qurilish oldida QR-kodli ma’lumotlarni joylashtirish kabi choralar ko‘rilmog‘da.

Sarmoya ham katta

So‘nggi yetti yilda mamlakatimizda qariyb 100 milliard dollarlik qurilish amalga oshirilib, sohadagi ishlar hajmi yiliga o‘rtacha 7-8 foiz o‘sayotir. Buning uchun esa katta mablag‘ talab etilishini oddiy odam ham yaxshi tushunadi. Sarmoya qancha ko‘p bo‘lsa, ko‘lam shuncha yuqori bo‘ladi. Masalan, o‘tgan yili turar joy qurilishida 25 trillion so‘m investitsiya o‘zlashtirildi. Bunda davlat va xususiy sektor mablag‘larining mutanosibligi sohaning barqarorligiga xizmat qilmog‘da.

2020-yilda 88,1 trillion so‘mlik qurilish amalga oshirilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 233,8 trillion so‘mga yetdi (o‘shish — 165,4 foiz). Bunday yuqori sur‘at infratuzilmani modernizatsiya qilish, turar joy va ishlab chiqarish obyektlari qurilishi hamda shaharsozlik faollashgani bilan izohlanadi. Shu

bilan birga, bu o‘shish ish o‘rinlari ko‘payishi, mahalliy materiallarga talab oshishi va investitsiya muhiti yaxshilanishini ko‘rsatadi.

2024-yilda turar joy qurilishiga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi 38 trillion so‘mni tashkil etdi va umumiy investitsiyalarning 7,7 foiziga teng bo‘ldi. Shu bilan birga, qurilish sohasini rivojlantirishga ajratilgan investitsiyalar 27 trillion so‘mni tashkil qilib, jami investitsiya hajmida 5,5 foiz bo‘ldi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan

chiqarish hajmini 50 trillion so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, 1,2 milliard dollar miqdorida eksport ko‘zda tutilmog‘da.

So‘nggi yetti yilda qurilish materiallari sanoatida 5 mingga yaqin yangi korxona ishga tushirilib, 94 mingga doimiy ish o‘rni yaratildi. Ishlab chiqarish hajmi ikki barobar oshib, yillik tovar aylanmasi 100 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan korxonalar soni 150 tadan ko‘paydi.

Oxirgi besh yilda bunyodkorlik hajmi ikki barobar oshdi. Shu davrda qiymati



qiymat hajmi 96,8 trillion so‘mni tashkil etdi va 2023-yildagiga taqqoslaganda qurilish hajmi 8,8 foiz o‘sdii. O‘tgan yilda amalga oshirilgan umumiy qurilish ishlarining asosiy qismi — 75,6 foizi yoki 176,8 trillion so‘m iqtisodiyotda yangi binolar va inshootlarni, ya’ni turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni barpo etishga to‘g‘ri keladi. Umumiy qurilish hajmi tarkibida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurish ishlari bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 40 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 34,5 foizi norasmiy sektor, 25,5 foizi yirik tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

Soha asosi — mahalliy sanoat

Qurilish sohasi rivoji boshqa tarmoqlar, birinchi navbatda, mahalliy qurilish sanoati o‘shish ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatmog‘da. O‘tgan yili bu sohada umumiy qiymati 40 trillion so‘m bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarilgani va o‘shish 2023-yildagiga nisbatan 112 foiz oshgani buning isboti. Qurilish materiallari eksporti 1 milliard dollarga yetkazilib, sohada 2,2 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirildi. Mahalliyatlashirish dasturi doirasida esa 3,5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 128 foiz o‘shishga erishildi.

Joriy yilda ko‘zlangan marra yanada yuqori — qurilish materiallari sanoatida ishlab

650 million dollar bo‘lgan yangi turdagi qurilish materiallari o‘zlashtirildi. Bu esa qurilish sohasida import mahsulotlariga ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirib, umumiy import ulushini 31 foizdan 25 foizga tushirishga xizmat qildi.

Qurilish materiallari eksporti geografiyasi ham kengaygan. Mahalliy tadbirkorlar yangi bozorlarga kirib boryapti. 2024-yilda mahsulot eksport qilingan davlatlar soni 58 taga yetdi. Xorijiy bozorlarda 20 dan ortiq savdo ombori hamda 50 dan ziyod ixtisoslashtirilgan savdo do‘koni ochildi.

Mahalliy sanoatda sifat ko‘rsatkichlari bilan birga energiyatejamkor mahsulotlar ishlab chiqarishga talab oshgan. Davlatimiz rahbari tomonidan qurilishda energiya sarfini kamaytirish maqsadida bazalt materialdan foydalanishni kengaytirish, quyosh nurini qaytaruvchi oyna, vermikulit aralashmasi kabi innovatsion materiallardan samarali foydalanish hamda binolarning fasad qismlarida fibro tolali panellarni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. Bu esa binolarning energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi omillar sanaladi.

“Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i” xalqaro tashkiloti tomonidan 2025-yil uchun e’lon qilingan Barqaror rivojlanish hisoboti reytingida O‘zbekiston 167 ta davlat orasida 73,1 ball bilan 62-o‘rinni egalladi. Unda O‘zbekiston 2015-yildan buyon Markaziy

Osiyo va Sharqiy Yevropa mintaqalarida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha eng tez sur‘atlarda taraqqiyotga erishgan davlat sifatida e’tirof etilgan. Bu boradagi islohotlarimiz yuqori baholangan bo‘lsa-da, BRMning alohida yo‘nalishlari kesimida yechimini kutayotgan ayrim muammolar saqlanib qolmog‘da.

Jumladan, O‘zbekiston oldida sog‘liqni saqlash va farovonlikni ta’minlash, toza ichimlik suv va sanitariya, arzon va barqaror energiya manbalaridan foydalanish, shaharlar va aholi yashash maskanlarining barqaror rivojlanishi, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish hamda samarali, hisobdor va inklyuziv institutlarni shakllantirish kabi hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar turibdi. Ushbu sohalaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish BRMga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy rivojlanish strategiyalari bilan BRM maqsadlarini uyg‘unlashtirish va sektorlararo hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida ko‘rilmog‘da.

Texnik va ekologik nazorat muhim masala

Buyo‘nalishdahanqatormasalaramavjud. Birinchidan, qurilish ishlari hajmi ortishi va infratuzilmaga talab keskin o‘shishi mavjud sifat nazorati mexanizmlari samaradorligini ta’minlashni qiyinlashtirmog‘da. Ayniqsa, malakali mutaxassislar, zamonaviy nazorat va laboratoriya uskunalari yetishmovchiligi, shuningdek, amaldagi texnologik standartlardan chetga chiqish holatlari soha sifati ta’minlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatmog‘da.

Ikkinchidan, qurilish sohasida hanuzgacha saqlanib qolayotgan byurokratik to‘siqlar ham sifat nazoratining tizimli ta’minlanishiga xalal beryapti. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida “Shaffof qurilish” axborot tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, uning to‘liq va samarali faoliyat yuritishini ta’minlash uchun qo‘shimcha tashkiliy va texnologik chora-tadbirlar ko‘rilishi talab etiladi.

Shu bois, qurilish sohasida sifat nazoratini samarali tashkil etish va tizimli ravishda amalga oshirish uchun qator ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, nazorat va sertifikatlashtirish institutlarini institutsional jihatdan mustahkamlash, raqamli texnologiya va axborot tizimlaridan keng foydalanish hamda malaka oshirish va mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish sifat nazoratini yaxshilashda hal qiluvchi omillar sifatida qayd etiladi.

Qurilish materiallari bozorida sifatsiz va amaldagi standartlarga javob bermaydigan mahsulotlar aylanmasi sifat nazorati tizimiga tahdid solmog‘da. Ushbu xavflarni

kamaytirish maqsadida davlat nazoratini kuchaytirish, standartlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda laboratoriya sinovlarini majburiy tartibda o‘tkazish yuzasidan huquqiy va institutsional asoslar yaratilmog‘da.

Qurilish jarayonida ekologiya va energiya samaradorligi masalalari ham dolzarb. Yangi talablarga muvofiq, binolarda energiya tejoychi oyna, qayta ishlangan xomashyo va “yashil” sertifikat talablari joriy etilmog‘da. Bu, o‘z navbatida, sifetni texnik va ekologik jihatdan ham nazorat qilishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda qonunchilik va texnik reglamentlar takomillashtirilmog‘da, jumladan, “yashil” qurilish standartlarini joriy qilish, ushbu standartlar asosida sertifikatlash tizimini rivojlantirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali qurilish jarayonida barqarorlik tamoyillari yanada mustahkamlanmog‘da.

Bundan tashqari, qurilish sohasida ilmiy tadqiqotlar natijalari va zamonaviy injiniring yechimlarining amaliyotda yetarlicha qo‘llanilmayotgani, shuningdek, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimidagi mavjud bo‘shliqlar soha rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmog‘da. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ilmiy-tadqiqot institutlari bilan amaliyotchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, mahallilik ta’lim tizimini modernizatsiyalash, amaliy o‘quv va stajirovkalarni kengaytirish, shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish uchun grant va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmog‘da.

Qanday imtiyozlar bor?

O‘zbekistonda qurilish sohasi jadal sur‘atlarda rivojlanib, undagi investitsiyaviy muhit yil sayin yanada jozibadorlik kasb etyapti. Davlat tomonidan keng ko‘lamli infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, yangi shaharlar va turar joy massivlarini barpo etish, qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlash orqali mahalliy va xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmog‘da.

Xususan, “Yangi Toshkent” loyihasi, “Yangi Toshkent” megapolis loyihasi doirasida 2 million aholiga mo‘ljallangan yangi megashahar, 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadigan aeroport va multimodal xab tashkil etilishi, xalqaro darajadagi moliya markazlari, ofislar, savdo va ko‘ngilochar majmualar qurilishi, “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivlarini hududlarda jadal barpo etish kabi yirik loyihalar qurilish kompaniyalari va developerlar uchun imkoniyatlar yaratmog‘da.

Qolaversa, investorlar uchun boshqa qulayliklar ham bor. Masalan, yer osti boyliklaridan samarali foydalanish yo‘nalishini oladigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi 3 trillion dollarga teng xomashyo zaxiralari (litiy, volfram, grafit va boshqalar) qurilish materiallari sanoatini lokalashtirish va texnologik klasterlar yaratish uchun ulkan salohiyatni namoyon etmog‘da. Toshkent va Samarqand shaharlarida tashkil etilayotgan Kelajak metallari texnoparklari esa innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, tayyor qurilish materiallari eksport qiluvchi investorlar uchun barqaror bozor, uzoq muddatli daromad manbai va davlat kafolatlari bilan ta’minlangan platforma hisoblanadi.

Investorlar uchun soliqlar va investitsiyaviy imtiyozlar bor. Xususan, qurilish materiallarini tayyor mahsulot sifatida ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun 10 yil muddatga renta solig‘ini qaytarish amaliyoti yo‘lga qo‘yilayotgani investitsion muhit yanada jozibador bo‘lishiga xizmat qilmog‘da.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qurilish sohasi jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiyoti va infratuzilmasining strategik drayverlaridan biriga aylanmog‘da. Sohada raqamlashtirish joriy etilishi, “yashil” standartlar va barqaror qurilish tamoyillari keng qo‘llanilishi, shuningdek, yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilishi uning o‘shish sur‘atlarini ta’minlayapti.

Islohotlarni izchil davom ettirish, xususiy sektor va davlat hamkorligini kengaytirish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish sohaning uzoq muddatli samaradorligiga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sapura ISMETOVA,
Xalq deputatlari Nukus shahri
kengashi deputati

NUKUSLIKLAR QALBIDA ERTANGI KUNGA ISHONCH ORTMOQDA

Davlatimiz rahbari shu yil 10-iyul kuni “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Ushbu hujjatga ko‘ra, bu yilgi bayram “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” ezu g‘oyasi asosida o‘tkazilishi xalqimizga bayramona ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Ayniqsa, joylardagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini yanada jadallashtirdi. Xususan, nukusliklar ham yaratuvchanlik kayfiyatida bir butun xalq, yagona vatan bo‘lib olg‘a intilmog‘da.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

So‘nggi yillarda Nukus shahri jadal sur‘atda obod manzilga aylanmog‘da. Ko‘z o‘ngimizda ko‘chalar, mahallalar o‘zgarib boryapti. Shaharda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro ushbu yangilanishlar jarayonining nafaqat guvohi, balki ishtirokchisi hamdir. Chunki hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholi punktlarining me’moriy qiyofasini zamon talablari asosida yangilash, ularga tekzor yechim topish bugun mas’ullar oldidagi jiddiy vazifa. Shu bois, muntazam ravishda ochiq muloqotlar o‘tkazib kelinmog‘da.

Bugunning gapi

“Nukus City” turar joy massivlari, IT park binosi singari innovatsion shaharsozlik namunalari barpo etilmog‘da.

Ushbu o‘zgarishlar jarayonida yana bir jihatga e’tibor berishimiz kerak. Ya’ni islohotlar mazmun-mohiyatini, qabul qilinayotgan yangi farmon va qarorlarning ahamiyatini xalqchil tilda jamoatchilikka tushuntirish ham muhim. Qolaversa, aholi murojaatlari bilan ishlash, ularga tekzor yechim topish bugun mas’ullar oldidagi jiddiy vazifa. Shu bois, muntazam ravishda ochiq muloqotlar o‘tkazib kelinmog‘da.

Yuqorida aytganimizdek, Nukus shahri har bir ko‘chasi obod bo‘lib boryapti. Ayniqsa, daraxtlar ekiladigan maydonlarda, jumladan, Qo‘shbulog‘ va Bo‘zovul mahallalari hududlaridagi ichki yo‘llarni bog‘lovchi Mayovul ko‘chasi bo‘ylab ko‘zni quvontiradigan kanna gullari ekilgan. Bu gullarning quyosh nuridagi jilvasida hayot go‘zalligi, tinchlik ifodasi bordek go‘yo.

Nukus shahrida investitsiya muhiti ham sezilarli darajada yaxshilanayapti. “Yashil makon” umummilliy loyihasi

asosida Nukus yashil hududga aylandi. Shahrimizdagi Havo yo‘li mahallasida 140 xonadonli, Chimboy guzari mahallasida esa 200 xonadonli uy-joylar qad ko‘tardi. Avval bu joylarni ko‘rgan kishi ushbu

qumloq joyda yantoqdan boshqa hech narsa ummaydi deyda o‘ylardi. Bugun bu qarash butunlay o‘zgarib ketdi.

Aholini sifati ichimlik suv bilan ta’minlash va oqova suv tizimlarini

yaxshilash maqsadida Otamakon, Bestobe, Yashilbog‘, Quti makon, Samanbay, Teleoray va Chimboy guzari mahallalariga oqova suv keltirildi.

Nukus shahridagi “Bog‘chilik” mahalla fuqarolar yig‘inida ham so‘nggi yillarda inson qadrini yuksaltirish borasida ezgu ishlar qilinmog‘da. Hududda bugungi kunda 517 xo‘jalikda 2897 aholi yashaydi. O‘tgan asrning 1977-1978-yillarigacha bu hudud Nukus tumaniga qarashli bo‘lgan. Keyinchalik Nukus shahriga qo‘shilgach, xonadonlar soni ko‘payib, uylar noqonuniy ravishda qurilavergan. Prezidentimizning 2018-yil 20-apreldagi “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan uy-joylarga nisbatan mulk huquqini tan olish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoni asosida mahalladagi 434 ta xonadonga yangi kadastr hujjati berildi. Ko‘chalar tartibga keltirilib, Navro‘z, Obodonlashtirish, Baliqchi, Totuvlik, A.Qunnavorov ko‘chalari asfalt qilindi. Sao‘ir, Qipchoq, Baxtli, Bog‘chilik, Shodlik ko‘chalariga qumshag‘al to‘shalib, xonadonlarga ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Shu bilan birga, hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj 32 ta xonadon egalari uylarining tomi yopib berildi.

Dunyio hamjamiyati tomonidan “O‘zbekiston — imkoniyatlar mamlakati” deb tan olinishi bejiz emas. Chindan ham inson qadri ulug‘lanayotgan yurtimizda bunday ezgu ishlar har kuni amalga oshirilayapti.



YANGI O‘ZBEKISTON



Oliy ta’lim islohotlari

YANGI O‘QUV DARGOHI – YANGI IMKONIYATLAR MASKANI

Joriy yilning 24-yanvar sanasi Buxoro ilm-fani hamda yoshlari kelajagi uchun tarixiy kun bo‘ldi. Gap shundaki, aynan Prezidentimiz imzolagan qaror asosida Buxoro muhandislik texnologiya instituti hamda Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti birlashtirilib, Buxoro davlat texnika universiteti tashkil etildi.



Sadoqat SIDDIQOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Bu nafaqat yangi oliy ta’lim muassasasi ochilganidan, balki hududning ilmiy, texnologik va iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Chunki qarorda keltirilganidek, mazkur o‘quv dargohi faoliyati Buxoro viloyati iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, ishlab chiqarish, muhandislik, neft va gaz, transport hamda logistika sohalar uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim tashkilotlarining mavjud resurslaridan samarali foydalanish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda ilimga, xususan, muhandislik va texnika yo‘nalishiga e’tibor keyingi yillarda ancha ortdi. O‘tgan yil 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz muhandislik va texnika sohasi



QR-KOD ORQALI
VIDEOGA O‘TING!

bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tahlil qilar ekan, mavjud muammolar — infratuzilma yetishmovchiligi, sanoat bilan ilm-fan o‘rtasidagi uzilish, malakali kadrlar tayyorlashda muvofiqlik yo‘qligini tanqid qilib, amaliy yechimlar, qat’iy topshiriqlar, muhim tashabbuslarni ilgari surgan edi. Natijada har bir hududda texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini optimallashtirish, birlashtirish va ularni kuchli, markazlashtirilgan ilm-fan maskanlariga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Buxoro davlat texnika universiteti ham ana shu tashabbus mahsuli bo‘ldi.

O‘quv dargohimiz “yashil” va inklyuziv universitet modelidir. Bu degani, universitet nafaqat texnik bilimlar beruvchi maskan, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik, zamonaviy energiya yechimlari, gender tenglik va raqamli transformatsiyani ilgari suruvchi ilg‘or maskan sifatida shakllanmoqda.

Mazkur yo‘nalishda allaqachon jiddiy qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, IT va muhandislik inklyuziv ta’lim markazi tashkil etildi. Kelgusida bu yerda yoshlar, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari bilim olishga jalb qilinadi. Shuningdek, universitetimizda Ilg‘or muhandislik maktabi tashkil etildi. Bu faqat nazariy ta’lim emas, balki real ishlab chiqarish muhitiga moslashtirilgan, amaliyoti kuchli muhandislar tayyorlash uchun yaratilgan maxsus modelidir.

Ilg‘or muhandislik maktabi tarkibida raqamli tadqiqotlar, ilmiy tadqiqot, neft va gaz ishi hamda neft va gaz kimyosi va texnologiyasi laboratoriyalari ish boshladi. Ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlanib, ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘langan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Laboratoriyalar sanoat hamkorimiz — “O‘zbekneftgaz” AJ bilan kelishuv bo‘yicha jihozlangan bo‘lsa, Buxoro neftni qayta ishlash

zavodi tomonidan o‘quv-seminar xonasi to‘liq ta’minlanib, amaliy mashg‘ulotlar uchun sharoit yaratildi.

Bugungi kunda universitetimizda 18 mingdan ortiq talaba, 500 nafarga yaqin magistr, doktorant va qo‘shma ta’lim talabasi tahsil olmoqda. Ilmiy salohiyat esa 54 foizni tashkil etib, 2025-yil oxiriga qadar 60 foizga, keyingi yillarda esa 70 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 2025-yilning o‘zida 6 ta fan doktori va 47 ta falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qildi.

Buxoro davlat texnika universiteti “Times Higher Education”da kuchli mingtalikka kirishga da’vogar bo‘lmoqda, “QS Asia” reytinglaridan o‘rin egallay boshladi. “Yashil universitetlar” reytingida 858-o‘rin, Osiyo reytingida esa 900-o‘ringa chiqdi.

Shuningdek, “Web of Science” va “Scopus” bazalarida 457 ta ilmiy maqola chop etilgan bo‘lib, ularning 334 tasi indeksatsiyalangan. 14 nafar professor-o‘qituvchimizning H-indeks ko‘rsatkichi 5 va undan yuqori. Universitetimizda ayni paytda 35 ta patent, 98 ta innovatsion loyiha, 12 ta amaliy loyiha hamda 1 ta fundamental ilmiy loyiha bo‘yicha ishlanmoqda. 8,5 milliard so‘mlik startap va texnologik loyihalar sanoatga yo‘naltirilgan. Ularning 137 tasi tijoratlashtirilib, 10,5 milliard so‘m jalb qilindi.

Yosh olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan mikrogidroelektr stansiyalar Buxoro va G‘ijduvon tumanlarida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi. Bu orqali yiliga 7 ming megavatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Belarusa bo‘lib o‘tgan “Yashil Yevroosiyo” tanlovida universitetimiz olimlari 250 ming dollarlik grantni ko‘lga kiritganini alohida faxr bilan aytish mumkin.

Joriy yilda oliy dargohimizni 3343 talaba bitirdi va 94,5 foizi o‘z sohasi bo‘yicha ish

bilan ta’minlangan. Bu faqat diplom emas, balki haqiqiy karyera imkoniyati berayotgan ta’lim tizimining isboti.

“Karyera kunlari”, hokimliklar bilan ochiq suhbatlar, sanoat korxonalarida amaliyotlar va individual yondashuvlar orqali talabalar ishlab chiqarish obyektlariga jalb qilinmoqda. Shuningdek, 207 professor-o‘qituvchimiz xorijiy va mahalliy tashkilotlarda ilmiy stajirovkalarga yuborildi.

Texnika taraqqiyoti har doim jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib kelgan. Buxoro davlat texnika universiteti esa texnologik rivojlanishning tayanch nuqtasiga aylanmoqda. Hozirgi bosqichda universitet tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda katta o‘zgarishlar qilinmoqda:

- ▶ xalqaro grantlar va investitsiyalar jalb qilish (2025-yilda 5,6 million dollardan ortiq);
- ▶ dual ta’lim tizimini rivojlantirish;
- ▶ sanoat korxonalari bilan o‘zaro integratsiya;
- ▶ zamonaviy o‘quv metodologiyalarini kiritish;
- ▶ innovatsion startaplar uchun maxsus platformalar yaratish.

Xulosa qildigan bo‘lsak, Buxoro kelajak texnikasining markaziga aylanmoqda. Har bir laboratoriya, har bir ilmiy loyiha, har bir bitiruvchi — O‘zbekiston kelajagiga qo‘shilayotgan real hissa.

Prezidentimiz aytganidek, oliy ta’limda transformatsiya faqat tuzilma o‘zgarishi emas, balki tafakkur, metodologiya, maqsad va natijalar o‘zgarishidir. Universitetimiz aynan shunday transformatsiya sari ildam qadam tashlamoqda. Bugun Buxoroda yongan ilm-fan mash’ali ertaga butun mamlakatni texnologik yuksalish sari boshlaydi. Zero, har bir jamiyatning kelajagi yoshlarning bilimida, kuchida va salohiyatidadir.



Milliy davlatchiligimiz tarixidan

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiyamiz
muqaddimasida
“davlatchiligimiz
rivojining uch ming
yildan ziyod tarixiy
tajribasi, shuningdek,
jahon sivilizatsiyasiga
beqiyos hissa qo‘shgan
buyuk ajdodlarimizning
ilmiy, madaniy va
ma’naviy merosi” alohida
ta’kidlanadi.

5

QORAXONIYLAR MEROSI: DAVLATCHILIK, MADANIYAT VA O‘ZLIK

**Taxminan 840-1218-yillarda
hukmronlik qilgan qoraxoniylar
sulolasi Markaziy Osiyo
tarixida alohida o‘rin egallaydi.
Ular islom dinini birinchi
bo‘lib qabul qilgan hamda
ko‘p millatli, shaharlashgan
imperiyani boshqargan
yirik turkiy davlat sifatida
mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va
madaniy tuzilmasida chuqur
o‘zgarishlarni boshlab berdi.**

Asli ko‘chmanchi chorvador qarlug‘ ittifoqidan kelib chiqqan bu sulola Sharqiy Turkistondagi Qashg‘ardan G‘arbiy Turkistonning madaniy va savdo markazlari — Samarqand va Buxorogacha bo‘lgan hududda mustaqil, qudratli davlat barpo etdi. Qoraxoniylar hukmronligi turkiy-islomiy o‘zlik rivoji, turkiy siyosiy an‘analarning islomiy doirada institutsionallashtirish hamda til va madaniyat taraqqiyotida asosiy bosqich bo‘lib xizmat qildi. Bu jarayonlar oxir-oqibat o‘zbek millati shakllanishiga zamin yaratdi.

Qoraxoniylar siyosiy tizimi 840-yilda Uyg‘ur xoqonligi parchalanishi ortidan yuzaga keldi. Dastlab Farg‘ona vodiysi va Chu-Il i mintaqasiga ko‘chib kelgan yarim ko‘chmanchi qarlulqar mintaqaviy ustunlik uchun kurashga kirishdi. X asr boshlarida qarlug‘ yabg‘ulari yetarli siyosiy kuch to‘plab, qoraxoniylar nomi bilan tanilgan sulolaga aylandi. Ularning siyosiy markazlari oldin Balasog‘un va Qashg‘ar, keyinroq esa Samarqand bo‘ldi.

Sulola siyosiy hukmronligini Turk va Uyg‘ur xoqonliklarining merosi sifatida xoqon, yabg‘u, tudun, tegin, tarxon kabi turkiy imperatorlik unvonlarini qabul qilish orqali mustahkamladi. Bunday unvonlar faqat marosimiy emas, balki siyosiy tizimning asosi bo‘lib xizmat qildi. Davlat ulug‘ xoqon boshchiligidagi viloyatlarda hukmronlik qilgan shahzodalar orqali boshqarilardi. Bu iyerarxiya va bir vaqtning o‘zida markazsiz tizim turlicha etnik va madaniy guruhlarini birlashtirgan yirik imperiyani samarali boshqarish imkonini berdi.



Satuq Bug‘roxo

X asr o‘rtalarida qoraxoniylar xoqon Satuq Bug‘roxo tomonidan islomning rasman qabul qilinishi turkiy xalqlar tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu voqea sulolani musulmon dunyosi bilan har tomonlama birlashtirdi. 960-yilga kelib, qoraxoniylar davlati aholisining aksariyati islomni qabul qilgan edi va islom rasmiy davlat dini deb e’lon qilindi.

Qoraxoniylar davlati diniy institutlar ravnaq topdi, masjidlar, madrasalar va vaqflar barpo etildi. Bu muassasalar islomiy ta’lim va fiqhni tarqatish bilan birga ijtimoiy integratsiya va siyosiy qonuniylarni mustahkamlash vositasi bo‘lib xizmat qildi. Sunniy hanafiy mazhabi qabul qilinishi ularni Abbosiy xalifaligi bilan yaqinlashitirdi, xalifa ularga ramziy unvonlar berish orqali hokimiyatini tan oldi.

Qoraxoniylar davlati eng yuqori darajada rivojlangan davrida sharqda Ili daryosi va Issiqko‘l ko‘lidan g‘arbda Buxoro va Samarqandgacha bo‘lgan keng hududni o‘z ichiga olgan edi. Bu yirik hudud sharqiy va



g‘arbiy tarmoqlarga bo‘linib boshqarilgan bo‘lib, qadimiy Yevroosiyo dala-qirlari ko‘chmanchi chorvadorlari an‘analariga ko‘ra, sulola a’zolarining ulkan davlatni hamkorlikda boshqarish strategiyasini aks ettiradi. Sharqiy tarmoq — Balasog‘un-Qashg‘ar ko‘proq turkiy ko‘chmanchi an‘analarni saqlagan bo‘lsa, g‘arbiy tarmoq — Movarounnahr o‘zida yangi shakllangan turk-fors byurokratik madaniyat ta’sirini chuqurroq singdirgan edi.

Qoraxoniylar ko‘chmanchi boshqaruv modelini islomiy boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashtirdi. Urug‘da iyerarxiya va harbiy majburiyatlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, sulola soliq, qonunchilik va shahar hayotini boshqarishda fors tilida so‘zlashuvchi amaldorlar sinfiga tayandi. Bu murakkab tizim moslashuvchanlik va barqarorlikni ta’minladi.

Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyoda til va madaniyat tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Ilk bor turkiy til yuksak adabiyot, siyosiy nazariya va diniy ta’lim vositasi sifatida ishlatila boshlandi.

Mazkur jarayon islomiy nutq va ilm-fanning turkiylashuviga sabab bo‘ldi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit Turk” asari turkiy xalqlar shevalari, maqollari va og‘zaki an‘analarni o‘z ichiga olgan lug‘aviy va etnografik ensiklopediyadir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida islomiy siyosiy falsafa turkiy axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashadi. Asar turkiy qadriyatlarining davlat boshqaruvida muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Ahmad Yugnakiyning eng mashhur asari “Hibat ul-haqoyiq” deb ataladi. Bu axloqiy-didaktik doston islomiy qadriyatlar asosida axloqiy pand-nasihatlarini targ‘ib qiladi. Asarda turkiy adabiy ifoda va islomiy tafakkur uyg‘unlashgan bo‘lib, u nafaqat olimlar, balki keng ommaga ham mo‘ljallangan edi. Mazkur asar Markaziy Osiyoda turkiy-islomiy adabiyot taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan.

Ahmad Yassaviyning eng mashhur asari “Devoni hikmat” bo‘lib, u turkiy she’rlardan iborat tasavvufiy dostonlar to‘plamidir. Asarda ilohiy muhabbat, tavozе, ruhiy poklanish kabi asosiy suflar mavzular bayon etilgan. Bu asar turkiy xalqlar orasida tasavvuf g‘oyalari keng yoyilishida muhim rol o‘ynagan va Markaziy Osiyoning ma’naviy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Soddaligi va esda qoladigan tili sababli “Devoni hikmat” asrlar davomida og‘izdan og‘izga ko‘chib, keng tarqalgan.

Qoraxoniylar Markaziy Osiyoda islomiy me’morlik ravnaq topishiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning hukmronligi Buxoro, Samarqand va O‘zgand kabi lpak yo‘li shaharlarining tiklanish davriga to‘g‘ri keldi. Sulola diniy binolar, jamoat inshootlari va maqbaralar qurish orqali o‘z hokimiyatini moddiy timsolga aylantirdi.

O‘zgand yodgorlik majmuasi — maqbaralar va minoralar qoraxoniylar sharqiy tarmog‘ining me’morlik yutuqlarini yaqqol namoyon etadi. Buxoro va Samarqandda esa ular tomonidan bunyod etilgan masjid va madrasalar keyinchalik temuriylar davri me’morlik an‘analariga asos bo‘ldi.

Qoraxoniylar davrida (X-XII asrlar) Buxoro Markaziy Osiyoning yirik diniy va madaniy markazlaridan biri sifatida rivoj topdi. Bu davrga oid me’moriy yodgorliklar orasida

Mag‘oki Attor masjidi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u Buxorodagi eng qadimgi masjidlardan biri sanaladi va islomdan oldingi ibodat joyi ustiga qurilgan. Uning murakkab g‘isht terish texnikasi, ko‘p qatlamli naqshlari va yarim yer ostiga cho‘kkan holati qadimiylilik va davomiylik ramzidir.

Yana bir muhim inshoot — Namozgoh masjidi katta jamoaviy ibodatlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Buxorodagi ochiq maydonli diniy arxitektura an‘analarining ilk namunalaridan hisoblanadi. Qoraxoniylar davri minoralari, xususan, keyinchalik qurilgan Poyi Kalon majmuasining prototipi sifatida baholalanadigan ilk minoralar shaharning diniy markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlagan.

Kalon (Poyi Kalon) minorasi 1127-yilda qoraxoniylar hukmdori Arslonxon davrida qurilgan bo‘lib, Buxorodagi qoraxoniylar me’morligining eng yuksak namunasidir.

“Kalon” so‘zi “buyuk, ulkan, baland” degan ma’noni anglatadi va bu minoralar nafaqat masjidga chaqiruv vositasi, balki shaharning siyosiy hokimiyati va diniy mavqeini ifodalovchi ramziy inshoot bo‘lgan. Balandligi 45 metrdan oshadi va u o‘z davrining me’moriy ilg‘orlik darajasini yaqqol namoyish etadi. Ayniqsa, pishiq g‘ishtdan

Qoraxoniylarning eng muhim tarixiy merosi Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining etnik-madaniy o‘zligini shakllantirishdagi o‘rnidir. “O‘zbek” atamasi faqat XIV-XV asrlarda shayboniylar davrida ommalashgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining etnik, diniy va madaniy asoslari aynan qoraxoniylar davrida shakllandi.

Bunga bir necha omillar sabab bo‘ldi. Birinchidan, islomni umumturkiy tamaddun sifatida qabul qilish turli turkiy xalqlarni yagona diniy-huquqiy doirada birlashtirdi. Ikkinchidan, turkiy tilning adabiy va ma’muriy til sifatida institutsionallashtirish keyingi sulolalar uchun til barqarorligini ta’minladi. Uchinchidan, ko‘chmanchi va shaharlik aholi o‘rtasidagi o‘zaro aralashuv yagona islomiy-turkiy madaniyat shakllanishiga olib keldi.

O‘zbek madaniy merosida o‘chmas iz qoldirgan Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviy kabi siymalar aynan qoraxoniylar davrida yashagan. Ularning asarlari zamonaviy o‘zbek tilining ildizlari hisoblangan shevalarda yozilgan bo‘lib, o‘zbeklikni tarixiy-madaniy jihatdan asoslashda muhim rol o‘ynaydi.

Qoraxoniylar sulolasi inqirozi, ayniqsa, qoraxitoylar va keyinchalik mo‘g‘ullar bosqini bilan siyosiy tizim sifatida yakunlangan bo‘lsa-da, ularning merosi uzoq asrlar davomida saqlanib qoldi. Ular tomonidan asos solingan diniy, til va boshqaruv tizimlari xorazmshohlar, chig‘atoylar, temuriylar va shayboniylar kabi

keyingi turkiy-islomiy davlatlar tomonidan davom ettirildi.

Qoraxoniylar saroylari ilmiy va adabiy faoliyat markaziga aylangan edi. Bu yerda ko‘chmanchi og‘zaki madaniyat islomiy yozma an‘analari bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos Markaziy Osiyo tafakkuri shakllandi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy asos solgan tasavvufiy ta’limotlar butun mintaqadagi ruhiy hayotda asrlar davomida muhim o‘rin egalladi.

Qoraxoniylar tomonidan shakllantirilgan turkiy-islomiy uyg‘unlik faqat mintaqaviy hodisa bo‘lib qolmay, balki butun musulmon dunyosi tarixida burilish bo‘ldi. Ular turkiy xalqlarning islomni o‘zlashtirishda arab yoki fors vositachiligidan islomiy sivilizatsiyaga qo‘shilganini ko‘rsatdi. Bu tajriba keyinchalik Oltin O‘rda, Mamluklar



ishlangan murakkab geometrik naqshlar va kufiy yozuvli bezaklari uning Markaziy Osiyo islomiy me’morligi tarixida alohida o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Minoraning silindrsimon, yuqoriga ingichkalashuvchi shakli va halqasimon bezaklari keyinchalik butun mintaqada qurilgan minoralar uchun namuna bo‘lgan. Obida qoraxoniylardan temuriylar davriga o‘tishdagi me’moriy uslubning muhim ko‘prigidir.

Buxorodagi me’moriy yodgorliklar faqat diniy emas, balki siyosiy hokimiyat va madaniy o‘zlikni namoyon etuvchi ramziy obyektlar bo‘lgan. Ular keyingi sulolalar davridagi me’morlikning uslubiy asoslarini shakllantirdi va O‘rta Osiyo islomiy arxitekturasini poydevorini yaratdi.

Shunday inshootlar faqat diniy va siyosiy qudrat ramzi bo‘lib qolmay, balki sulolaning madaniy merosini hudud makonida abadiylashtirish vositasi hamdir.

**Farhod MAQSUDOV,
O‘zFA Milliy arxeologiya
markazi direktori, tarix fanlari
doktori, professor**

O'zbek tilining chinakam boyligi va qudrati rosmiyan o'rganilmagan. Tilimiz dunyoning eng zangin va rangin tillaridan biridir. Negaki u buyuk turk tili negizida tarkib topgan, arab, fors tillarining boy xazinasini keng miqyosda istifoda etgan, xalqaro atamalar bilan bahramand bo'lgan, dunyo tillaridan so'zlar olib boyigan tildir.



O'zbek tili kabi so'z yasash imkoniyati keng, shevalarga va sinonimlarga — ma'nodosh so'zlarga boy til ham dunyoda kam. Lekin, afsuski, keyingi yetmish yil ichida "Devonu lug'otit turk"da ulug'langan, "Muhokamat ul-lug'atayn"da tavsiflangan tilimiz boyish o'miga kambag'allashdi. Tilshunoslikda "arabizm", "forsizm"ga qarshi, adabiyotda "saroy tili", "kibor tili"ga qarshi ayv oldirilgan kurash, yo'qisil tili yo'qisilcha degandek, oxir-oqibat keng xalq ommasini Navoiy va Fuzuliydan, Ogahiy va Mashrabdan uzoqlashtirdi. Ularni o'qib tushunmaslik darajasiga yetib keldik. Esimda bor, oltmishinchi yillarda yozgan ko'pgina g'azallarim muharrirlardan bir sababu bahona bilan qaytardi: tili murakkab, qiyin, xalq

“

O'zbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqei uchun biz ko'p jihatdan o'tgan asr boshida yashagan jaded ziyolilardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Ular o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan dadil va mohirona foydalandilar; xalqda milliy g'ypyp, ona tiliga hurmat tuyg'usini tarbiya qildilar. Hali ruslashtirish siyosati avjiga chiqmasdan ilgari yuzlab, minglab ruscha va baynalmilal so'zlarni o'zbekchalashtirib ulgurdilar.

tushunmaydi. Matbuot xodimlarining o'ziga xos "mantiq"i ko'pincha shunday bo'lar edi: adabiyotchi bo'latirib menki tushunmasam, oddiy ishchi-dehqon qanday tushunsin? Aslida, tuvakda o'sgan gul kabi o'z idorasidan tashqarini bilmagan, xalq turmushidan uzoq bo'lib qolgan o'sha muharrirdan ko'ra oddiy ishchi-dehqon so'zga boyroq, zukkorog, fahmliroq bo'lgan. Lekin proletar mafkurasining dastyorlari o'z g'oyalari o'g'ishmay amalga oshirdilar. Mana shu g'oya bilan mumtoz shoirlarimiz qo'llagan so'zlar adabiy tilimizdan bir-bir chiqib ketdi, tilimiz bir inson umri davomida batamom "ishchi-dehqon tili"ga aylanib bo'ldi.

Bu-ku sho'r siyosatining oqibati edi. Tarixiy qadriyatlarini tiklash davlat siyosatiga aylangan bu kunda ham o'sha faqirona dunyoqarashning mavjudligiga nima deysiz? Hali hamon tilimizga kira boshlagan "bekat", "tayyora", "tuman" kabi so'zlarni kulgi qilib, "ostanovka", "samolyot", "rayon" deyishga xalq o'rgangan, yangi so'z topishning nima keragi bor deguvchilar kammi? Agar bunday dunyoqarash o'tgan asr boshida yashagan ma'rifatparvar jadidlar orasida ham hukmron bo'lganda, bugun bir gazetamizning nomi "Qishloq pravdasi", bir jurnallimiz "Jahon literaturasi", bir jamiyatimiz nomi "Культура ва просвещение" bo'lar edi. Bir vaqtlar Chingiz Aytmatov qirg'iz tilida "haqiqat" degan so'zning yo'qligini aytib faryod qilgan

edi. Mustay Karim gazetalarning birida bosilgan maqola sarlavhasini aytib davrani kuldigan edi: "Sovetlar Rossiyasida krestyanlar polojeniyesi". Kulgili sarlavha. Lekin boshqalardan kulmaylik-da, o'z tilimizga e'tibor beraylik. Hammamiz ham rus so'zlarini aralashtirmasdan gapiramizmi? Bir zamonlar Farg'onaning yo'llarida bir guruh yosh yozuvchilar shu mavzuda bahslashib qoldik. Men bir o'yin taklif qildim: kim gapida rus so'zini ishlatsa, bir so'm shtraf to'lasin. (O'sha vaqtda bir so'm ham pul edi). Odatda garov o'ynashni yaxshi ko'radigan O'tkir Hoshimovga taklifim yoqib tushdi va dabdurustdan: — Davay, o'ynaymiz! — deb yubordi. "Qani, davay uchun bir so'm davay", — dedim men hazillashib. "Avval siz to'lab qo'ying, — dedi O'tkir, — shtraf emas, jarima deyish kerak edi". Shunday qilib Farg'onaga yetganimizcha bir ziyofatning puli yig'ildi. Tayyorada to'qilgan she'r: **Parvoz chog'i tayyoraning** **dilbar kelini** **Ko'k yuzini bizga taxi** **Sulaymon qildi.** **Lekin e'lon o'qiganda o'zbek tilini** **Davlat tili bo'lganiga** **pushaymon qildi.** O'zbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqei uchun biz ko'p jihatdan o'tgan asr boshida yashagan jaded ziyolilardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Ular o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan dadil va mohirona foydalandilar; xalqda milliy g'ypyp, ona tiliga hurmat tuyg'usini tarbiya qildilar. Hali ruslashtirish siyosati avjiga chiqmasdan ilgari yuzlab, minglab ruscha va baynalmilal so'zlarni o'zbekchalashtirib ulgurdilar.

yatlaridan dadil va mohirona foydalandilar, xalqda milliy g'urur, ona tiliga hurmat tuyg'usini tarbiya qildilar. Hali ruslashtirish siyosati avjiga chiqmasdan ilgari yuzlab, minglab ruscha va baynalmilal so'zlarni o'zbekchalashtirib ulgurdilar. Birgina tilshunoslik bilan bog'liq atamalar qancha! "O", ("atoqli va turdosh ot"), "Sifat", ("sifatdosh"), "Son", ("Sanoq son", "tartib son"), "Olmosh", ("Kishilik olmoshi", "ko'rsatkich olmosh"), "Ravish" (Ravishdosh), "Kelishik qo'shimchalari" (Bosh kelishik, qaratkich, tushum kelishiklari)... O'quv qo'llanmalarini eslang: siyohdon, o'chirg'ich, chizg'ich, bir chiziq daftar, katak daftar, qalamdon, jilt, bo'r va hakazo. Axir yuqorida keltirilgan so'zlarning ham baynalmilal yoki ruscha nomlari bo'lgan. Tayyor so'zlarni qabul qilsalar oson edi, bosh og'rig'i kam bo'lardi. Biz bugun gapning egasi va kesimi deyish o'rniqa predlojeniyening podlejashcheyesi va skazuyemoyesi deb yurgan bo'lardik. Lekin o'sha zamon ziyolilarining ijodiy jasorati bois biz bugun shunday boy mulkka egamiz. O'sha atamalar allaqachon ongimizga joylashib, o'zimizniki bo'lib ketganki, biz ularni kimdir izlab topganini, yaratganini, bahsu munozaralar bilan qabul qilinganini o'ylamaymiz ham. Vaholanki, tilga bir yangi so'zning kirishi yengil jarayon emas.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri

MA'NAVIYAT

YANGI O'ZBEKISTON

Har bir insonning kamolga yetishida ota-onasi qatorida o'qituvchi, ustozning xizmatlari ham beqiyos. Bejiz xalqimiz "Ustoz otangdan ulug'" demagan. Bizni 1-sinfda Bozor Safarov degan muallim o'qitgan. O'sha yili qishda qattiq kasal bo'lib qolib, qariyb bir oy maktabga borolmaganman. Muallimim har haftada ikki-uch bor uyimizga kelib, menga harflarni o'rgatgan, sinfdoshlarimdan ortda qolib ketmasligim uchun jon kuydirgan.

Mulohaza

HAYOTNING ABADIY QONUNIYATI: O'QITUVCHIGA EHTIROM

Abdusalam TAYPATOV,
jurnalist

9-sinfda ona tili va adabiyot fanlaridan Do'stmurod Haydarov degan o'qituvchi dars bera boshladi. Shu davrga qadar men barcha fanlardan "a'lo"ga o'qib, matematika fanidan muntazam ravishda tuman miqyosidagi olimpiadalarda qatnashardim. Yangi adabiyot o'qituvchimiz bizni sehlrab qo'ydi. O'zbek adabiyotining taniqli namoyandalari hayoti va ijodi haqida mehr bilan shunday ajoyib gaplar aytar, ijodidan namunalarini jo'shib yoddan o'qib berardiki... Shundan so'ng sinfdoshlarimiz orasidan ko'pchilik she'r yoza boshladi. Adabiyot darslarini intiqlik bilan kutadigan bo'ldik. Shu sabab men ham boshqa fanlardan ko'ra ona tili va adabiyotni ko'proq o'qiy boshladim. Adabiyotni tanlashimda Do'stmurod aka Haydarovning (oxiratlari obod bo'lsin) hisssasi juda katta bo'lgan. Biz, o'quvchilar hatto dam olish kunlari ham muallimimizning uyiga borar, soatlab adabiyot haqida gurgunglashardik. Endi o'ylasam, bizga saboq bergan barcha o'qituvchilar o'z sohasining fido-yilari, jonkuyarlari, yaxshi mutaxassislar bo'lgan ekan. Ular qishlog'imizning jadidlari edi, desam ishonaverim. Bu fidoiy, o'z fanining bilimdoni bo'lgan ustozlar biz — qishloq bolalari

ongiga o'qishga, ilm olishga intilish tuyg'usini singdirgan. Bugun o'zim ham ustoz maqomiga ko'tarilganimda anglaganim shu bo'ldiki, ularning qilgan eng katta ishi — yaxshi o'qisanglar, kelajakda katta odam bo'lasizlar, el-yurtga foydalaring tegadi degan fikrni miyamizga quyg'an, bizni shunga ishonitirgan. Ustoz, muallim sifatida o'z zimmasiga yuklangan missiyani sharafla bajaragan. Shuning uchun ham ular, to tirik ekanmiz, biz — o'quvchilari qalbida abadiy yashaydi. Biz ulardan o'rgangan ezuq fazilatlarini yoshlarga, o'zimizdan keyingi avlodga singdiramiz va estafeta shu tarzda davom etaveradi. Hayotning abadiy qonuniyati ma'nosi ham shu.

Men o'qigan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti bo'limida bizni o'zbek filologiyasi bo'yicha yirik olimlar — Natan Mallaev, Mazluma Asqarova, To'xtamurod Boboyev, Pirmat Shermuhammedov, Quadrat Ahmedov, Ra'no Abdulahatova, xorij adabiyotidan dars bergan Hamidjon Hamidov kabi asl ustozlar kutib oldi. Maktab o'qituvchilari ongimizga ekan



ilm nihollarini parvarishlab, bizdan ona tili va adabiyoti jonkuyarlari, mutaxassislar tayyorlashdi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotidan dars bergan domlamiz Muhabbat Ahmadboyeva bir imtihoniga yigitlarni kiritmadi. Qahraton qish edi. Biz esa hammamiz institutga yalangbosh kelgandik.

— Hozir o't-olovsizlar, bilmaysizlar. Hammang bosh kiyim kiyib kelsanglar, keyin imtihonga kirasizlar, — degan edi mehr bilan.

O'qishni bitirayotgan yilimiz akademik Mazluma opa Asqarova qizlarga shunday nasihat qilgandi: "Jon qizlarim, mana shu atroflaringda yurgan, bugun ko'zlaringga bo'sh-bayov bo'lib ko'rinayotgan yigitlarning etagidan mahkam ushlanglar. Ular hali o'zini tutib olib, bir ajoyib insonlar bo'ladi. Sizlarga har kuni gap otib, tinchlik bermayotgan o't-olov yigitlardan ehtiyot bo'linglar, ular mustaqil hayotda sizlarga ko'p tashvish keltiradi".

Shu o'rinda dotsent Ra'no Abdulahatovanning qat'iyyati tufayli talaba bo'lganimni aytmasam bo'lmaz.

“

Yangi adabiyot o'qituvchimiz bizni sehlrab qo'ydi. O'zbek adabiyotining taniqli namoyandalari hayoti va ijodi haqida mehr bilan shunday ajoyib gaplar aytar, ijodidan namunalarini jo'shib yoddan o'qib berardiki... Shundan so'ng sinfdoshlarimiz orasidan ko'pchilik she'r yoza boshladi. Adabiyot darslarini intiqlik bilan kutadigan bo'ldik. Shu sabab men ham boshqa fanlardan ko'ra ona tili va adabiyotni ko'proq o'qiy boshladim. Adabiyotni tanlashimda Do'stmurod aka Haydarovning (oxiratlari obod bo'lsin) hisssasi juda katta bo'lgan.



Guruhimizdagi o'ttiz abituriyentdan birinchi imtihon — inshodan yetti nafar yigit-qiz zo'rg'a uch baho bilan o'tdik. Ikkinchi imtihon — ona tili va adabiyotdan og'zaki javoblarini diqqat bilan tinglagan ayol o'qituvchi (keyin bilim bu Ra'no Abdulahatova ekan) sherigi, keksaroq adabiyot muallimiga yuzlanib:

— Bugun ertalabdan buyon imtihonga kirganlar ichida shu bolaning javobidan ko'nglim to'ldi. Unga "to'rt" qo'ysak, mandatdan o'tolmaydi, inshodan "uch" olgan ekan, komissiyani chaqiramiz, — dedi qat'i'y.

Issiqda lohas o'tirgan keksa adabiyot o'qituvchisiga bu gap uncha yoqmadi.

— Komissiya hozirgina kelib-ketdi, ularni yana kim chaqirib keladi, Ra'noxon, "to'rt" qo'yaveraylik, — dedi erinibgina.

Men o'zim aytib kelaman, — deya ayol muallim shartta o'rnidan turdi.

"A'lo" baho qo'yish vakolatiga ega komissiyaning ikki vakili — o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri To'xtamurod Boboyev va o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri Hasanboy Jamolxonov xonaga kirib keldi. Ularning ism-familiyalari keyin bildim.

— Sizga har birimiz ikkitadan savol beramiz, — dedi To'xtamurod Boboyev. — Agar javob berolsangiz, bo'ldi, bahongiz "besh".

O'zbek adabiyotidan ikkita va ona tilidan bitta savolga to'liq javob berdim. Faqat tildan berilgan majhullik fe'l nisbatiga doir savolning javobida chalkashdim.

— To'rtta savolning uchtasiga javob bor, bittasiga esa yo'q, — dedi To'xtamurod domla salmoqlab. — Keling, endi sizga yana bir imkon beraylik. Siz adabiyot fakultetiga o'qishga kirypsiz, o'g'lim. Yoddan bitta she'r o'qiy siz.

Menga jon kirdi. O'sha paytlari yuzlab she'rlarni yoddan bilardim. Shartta qaddimni rostlab, deyarli bo'sh auditoriyaga yuzlanib, shoir Shuhratning "Noma'lum soldat haykali oldidagi o'ylar" sarlavhali uzundan uzoq she'rini ifodali o'qiy boshladim. She'rning har bandida takrorlanadigan "Kim u? Kim u? Kim u?" naqoratini baland ovozda o'qiyman.

Ustimda o'sha paytlari urf bo'lgan oq neylon ko'ylak, qora shim. Terlab ketganman. She'mi tugatib, ochiq turgan eshikka qaragam, bir guruh abituriyentlar meni kuzatib turgan ekan.

— Barakalla, o'g'lim, — dedi To'xtamurod Boboyev o'rnidan turib. — Mana endi "besh"ni halolladingiz.

O'qishga kirgach bildimki, bu domlarni institutning juda e'tiborli olimlari ekan. Ayniqsa, Ra'no Abdulahatovanning qat'iqlikligidan yaxshi o'qimaydigan talabalar zirillardi. O'zbek tilini o'zlashtirilmayotgan bir xorazmlik kursdoshimizning ota-onasini chaqirib, o'g'lingizdan ona tili o'qituvchisi chiqmaydi deb ochiq aytib, o'z xohishlari bilan hujjatlarini olib ketishga majbur qilgandi.

Bu ustozlar mening maqtovinga muhtoj emas. Ularning yorug' xotirasi doimo xayolimizda, qalbmizda. Ular bizga qanday yashash va ishlash kerakligidan saboq berib ketdi. Aytmoqchimanki, bunday fidoiy ustozlarning hayot yo'li yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Ish jarayonida ham qancha yaxshi odamlarga, o'z kasbining ustalariga, mehnatkash ustozlarga duch keldik. Ulardan oz-ozdan o'rganib, bugun o'zimiz ham keyingi avlodga ustoz maqomida turibmiz.

Muxtasar aytganda, bunday misollar, xotiralar har kimning hayotida uchraydi. Har bir kishi o'zining kamolga yetishiga hissa qo'shgan chin ustozlar haqida juda ko'p va xo'b gapirishi, yozishi mumkin.

Mamlakatimizda keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan o'qituvchilik kasbining nufuzini ko'tarish, ularning moddiy ahvolini yaxshilash, zarur mehnat sharoitlari yaratish borasida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilar bundan-da yuksak e'tibor va hurmatga arziydi. Ularning zahmatlari juda katta olqish va tahsinlarga loyiq.

Talimda sifat ustuvor bo'lar ekan, jamiyat yuksalaveradi. Rivojlangan dunyo tajribasi shunday. Buning uchun o'qituvchilar, eng avvalo, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Men mamlakatimizda o'qituvchi kasbining obro'sini oshirish, nufuzini yuksaltirish maqsadida shunday taklif bildirmogchiman: shahar-u qishloqlarimizdagi bosh maydonlarda o'qituvchiga ramziy haykallar o'rnatilishi lozim.

Bu xalqimizning ustozlarga mehr-muhabbati ifodasi sifatida jamiyatimizda juda katta ijobiy aks sado beradi. Ushbu haykallar po'yiga 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni, Bilimlar kuni va boshqa bayramlarimizda keng jamoatchilik nomidan gullar qo'yamiz, o'qituvchilar sha'niga iliq so'zlar aytib, ularni olqishlaymiz.

Vijdonaning aytganda, bu shogirdlarning ustozlar oldidagi burchidir.